

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 330.18.338.981(584.4)

ABDURAXMONOVA MUQADDAS TO‘XTASIN QIZI

**Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosiblikni
ta'minlashning asosiy yo‘nalishlari**

5A230102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
I.f.d., dots. Shadmanov E.Sh.**

Toshkent - 2014

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I-BOB	BOZOR IQTISODIYOTIDA MUTANOSIBLIKLAR VA TARMOQLAR O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNING TARKIBIY O‘ZGARISHLARDAGI O‘RNI	
1.1.	Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni.....	7
1.2.	Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosibliklar va ularning tarkibiy o‘zgarishlar jarayonidagi roli.....	17
	I-bob bo‘yicha xulosa.....	23
II-BOB	O‘ZBEKISTONDA TARMOQLAR O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIK HOLATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
2.1.	Milliy iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblik holati va muammolari.....	25
2.2.	Respublikamizda qishloq ho‘jaligi va sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblik holatining tahlili.....	35
	II-bob bo‘yicha xulosa.....	43
III-BOB	IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TARMOQLAR O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI	
3.1.	Tarmoqlar o‘rtasida mutanosiblikni ta‘minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari	45
3.2.	Iqtisodiy tejamkorlikni ta‘minlashda tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosiblikni rivojlantirish yo‘nalishlari.....	58
	III-bob bo‘yicha xulosa.....	65
	Xulosa	67
	Adabiyotlar ro‘yhati.....	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo‘limlari, tarmoqlari, sohalari o‘rtasida o‘zaro mutanosiblik bo‘lishi ob'ektiv zarur muammo xisoblanadi. Iqtisodiyotda mutanosiblikni ta'minlanmasligi mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanilishiga bu esa o‘z navbatida iqtisodiy inqrozlarni yuzaga kelishiga, ishsizlik va inflyasiya darajasining oshib ketishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko‘rsatishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirishlar jarayonlari olib borilmoqda. Agar bu jarayonga e'tiborsiz yondashilsa, iqtisodiyotimizning turli tarmoqlari, sohalari, bo‘g‘inlari o‘rtasidagi mavjud nisbatlarning o‘zgarishiga va mutanosibliklarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari jahonda hukm surib surib turgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur'atlarining keskin pasayib ketishiga, ko‘plab korxonalarning yopilib, ishsizlar sonining ortishiga, turli mamlakatlar pulining qadri tushib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Yuzaga kelayotgan bunday holatlar iqtisodiyot tarmoq, soha va bo‘g‘inlarini mutanosibli rivojlantirish yo‘llarini qidirib topish, uni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirib borish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Iqtisodiyotimizning 2014-yilga mo‘ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo‘nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o‘sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan”¹ – deb ta'kidlaganlar.

Bunday sharoitda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun uning tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash o‘ta zarur vazifa hisoblanadi. Chunki turli tarmoqlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-biri bilan mos holda rivojlantirilmasa, iqtisodiyotning ishlab chiqarish, ayirboshlash va

¹ Каримов И.А. 2014 йил юқори ўсиш сур'ятлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади –Т.: 2014. –Б 24.

iste'mol jarayonlarida, turli tarmoqlar o'rtasida nomuvofiqliklar yuzaga kelib, behuda xarajatlar va isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Bu esa tarmoqlar o'rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqarib, ortiqcha tovarlarni shakllantiradi, ishlab chiqarish quvvatlarini bekor turib qolishiga sabab bo'ladi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining isrof bo'lishiga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotda resurslardan foydalanish samaradorligi darajasini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham bizning fikrimizcha tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muammosi chuqur tadqiq qilinishi va zarur bo'lgan dolzarb mavzu hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy mutanosiblik, ularning mazmuni, mohiyati, turlari va boshqa jihatlari bilan bir qator rossiyalik, ukrainalik olimlar V.S.Dunaev, M.B.Mazanova, M.Z.Bor, S.S.Shatalin, T.G.Brodskiy, D.K.Trifanov² kabilar shug'ullanib, bu masalalarni yoritishga harakat qilganlar. Lekin bu olimlarning asarlarida iqtisodiy mutanosiblik faqat sotsializmga xos hodisa deb ko'rsatilgan va o'sha sharoitga moslab uning mazmuni, shakllari, amal qilishi yoritilgan.

Mamlakatimizning bir qator iqtisodchi olimlaridan A.Abdug'aniev, U.Abdurazzoqov, A.O'lmasov, M.Sharifxo'jaev, Sh.Shodmonov, E.Shodmonov, M.Tursunxo'jaev, A.Vahobov, X.Barakaev, V.Osminin, F.Natochiev, M.Tadjimuratov, A.O'rinov, O.Hamroev U.G'ofurov³ va boshqalar iqtisodiy mutanosiblikning ba'zi bir jihatlarini yoritganlar.

Lekin bu mualliflarning ishlarida iqtisodiy mutanosiblikning nazariy asoslari, mazmuni uni ta'minlashning ba'zi jihatlari bilan cheklanib qolingan bo'lib, tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik bo'yicha alohida tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bundan tashqari yangicha iqtisodiy sharoitda, ya'ni iqtisodiyotni

² Мазанова М. Территориальные пропорции народного хозяйства СССР. –М., 1970.; Бор М. Эффективность общественного производства и проблемы оптимального планирования. –М.: Мысль, 1972. -336 с.; Шаталин С. Функционирование экономики развитого социализма. –М., 1982.; Трифанов Д. Общие экономические законы. –Л.: Изд. ЛГУ, 1964.

³ Абдуғаниев А. Темпы и пропорции воспроизводства общественного продукта в Узбекистане. –Т.: Фан, 1973.; Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2006. -480 б.; Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Мехнат, 1995. -528 б.; Вахобов А. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. –Т.: Шарқ, 2003. -319 б.; Шодмонов Ш., Ғофуров У. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. -728 б.; Ғуломов С. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000. -280 б.

modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash jarayoni amalga oshirilayotgan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini yumshatish dasturi bajarilayotgan sharoitda uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari takomillashtirish masalalari yaxlit tahlil etilmagan.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikning mazmunini, o'zgarish tamoyillarini, omillari va mexanizmlarini chuqur tadqiq qilish asosida Respublikamizda uni ta'minlashni takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Shu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- mutanosiblikning iqtisodiy mazmunini yoritib berish;
- tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik va uning tarkibiy o'zgarishlar jarayonidari rolini ochib berish;
- milliy iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holatini tahlil qilish va muammolari aniqlash;
- Respublikamizda qishloq ho'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holatini tahlili asosida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- tarmoqlar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqish;
- iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlashda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni rivojlantirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, uning turli tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash va takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti. Milliy iqtisodiyotining tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar va ularning o'zgarish tendensiyasi tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning uslubiy bazasi sifatida mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov asarlaridan, qabul qilingan qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy xujjatlardan hamda mutanosiblikka oid bo'lgan adabiyotlardan keng foydalaniladi. Undan tashqari tadqiqot jarayonida dialektik, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez,

mantiqiylik va tarixiylik hamda makroiqtisodiy va mikroiktisodiy tahlil birligi, matematik va statistik usullar qo'llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari:

- mutanosiblik to'g'risidagi nazariyalari o'rganilib, uning iqtisodiy mazmunini yoritib berildi;
- tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik va uning tarkibiy o'zgarishlar jarayonidari roli ochib berildi;
- milliy iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holatini tahlil qilindi va muammolari aniqlandi;
- Respublikamizda qishloq ho'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holati tahlil qilindi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi;
- tarmoqlar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari aniqlandi;
- iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlashda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni rivojlantirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishidan olingan ilmiy va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotni mutanosib rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makroiqtisodiyot», «Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» fanlari dasturini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishi matni 80 betdan iborat bo'lib, 16 ta jadval va 3 ta rasmni o'z ichiga olgan.

I-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIDA MUTANOSIBLIKLA VA TARMOQLAR O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNING TARKIBIY O'ZGARISHLARDAGI O'RNI

1.1. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi bir qancha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar majmuidan iborat bo'lib, turli yo'nalishda faoliyat yuritsada yuqori foyda olish maqsadida ko'zga ko'rinmas iqtisodiy aloqalar, munosabatlar bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari iqtisodiyotning siklik tebranishlarsiz bir maromda barqaror, samarali va muvozanatli rivojlanishini ta'minlash uning turli tomonlari, sohalari va bo'limlari o'rtasida muayyan moslikning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Mana shu moslik iqtisodiy mutanosiblik bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy tizimning transformatsiyasi jarayonida rivojlanadi, takomillashadi va o'zgarib boradi.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik bo'lishi shart emas. Ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo'lishi mumkin.⁴

Iqtisodiy jarayonlar g'oyat murakkab, o'zgaruvchan va ko'p tomonlama bo'lganligi uchun mutanosiblik turlari ham ko'p va xilma-xildir. Jumladan, A.G.Gryaznova asosan quyidagi mutanosiblik turlarini ajratib ko'rsatadilar:

1) resurslarning hajmi, tarkibiy tuzilishi va samaradorligini moddiy ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasi bilan bog'lovchi omillar (ishlab chiqarish, mehnat, moliyaviy resurslar) mutanosibligi;

2) jamg'arish me'yori, ya'ni ishlab chiqarishning ma'lum hajmiga erishish uchun uni kengaytirishga yo'naltiriluvchi mamlakat milliy daromadidagi ulushni belgilovchi jamg'arish mutanosibligi;

3) ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromadlarni ishlab chiqarish omillarining barcha egalari o'rtasida taqsimlanishi nisbatini belgilab beruvchi taqsimot mutanosibligi;

⁴ Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. 426-6.

4) iste'molchi talabi va taklifning hajmi, tarkibiy tuzilishi va qiymati bo'yicha nisbatini belgilab beruvchi ayirboshlash (sotish) mutanosibligi;

5) tovar va pul massasi o'rtasidagi nisbatni aks ettiruvchi tovar-pul mutanosibligi.⁵

Sh.Shodmonov, U.G'ofurov esa boshqa olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda umumlashtirib, iqtisodiy mutanosibliklarni quyidagi guruhlariga ajratish lozim deb ko'rsatib o'tishgan.

1. Umumiy iqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar. Bunga milliy daromadagi tarkibiy qismlar: iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi; aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Mamlakat xalq xo'jaligi juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib, o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarning ko'pchilik qismi (paxta, g'alla, pilla, sut va h.k.) sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste'molchilik tovarlari bozoriga chiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohalarning mahsulotlari xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari (qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k.)da unumli iste'mol qilinadi. Bu ularning bir-biriga bog'liqlikda rivojlanishini taqozo qiladi. Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar misol bo'ladi.

3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar. Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan,

⁵ Экономическая теория: Учебник/ Под ред. А.Г.Грязновой, Т.В.Чечелевой. – М.: Издательство «Экзамен», 2004, 415-бет.

sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar va h.k. Shu bilan birga ta'kidlab o'tilgan sohalarning ichidagi tarkibiy bo'linmalar o'rtasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasida va boshqalar

4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidagi roli to'liq namoyon bo'lmaydi. Lekin alohida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliklar)ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai-nazaridan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinadi.

5. Davlatlararo mutanosibliklar. Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. Birinchidan, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, ikkinchidan, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi. Bu bog'liqlik qanchalik katta bo'lsa, sof eksport hajmi orqali makroiqtisodiy muvozanatlikka shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadi.⁶

Iqtisodiy mutanosiblik kategoriyasini bilish faqatgina ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo'libgina qolmay, shu bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Tovarlar hajmi bilan amalda harakat qilayotgan pul massasi (naqd va kredit pullar) o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi, tovarlar hajmi e'tiborga olinmasdan naqd pul va ko'plab turli xil to'lov vositalari, qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarilishi jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozini keltirib chiqargani, bundan esa butun jahon iqtisodiyoti zarar ko'rib kelayotganligi kabi ko'pgina misollar fikrimiz dalilidir. Iqtisodiy mutanosiblik alohida iqtisodiy kategoriya bo'lib, u o'z tabiati,

^{6 6} Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. 426-427-6.

kelib chiqish sabablari, ichki rivojlanish qonuniyatlari va namoyon bo'lish shakllariga egadir. Mutanosiblikning bu jihatlarini va samarali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini bilish uchun eng avvalo uning mazmunini chuqurroq o'rganish taqozo etiladi.

Bir qator rossiyalik olimlar (V.S.Dunaev, M.B.Mazanova, M.Z.Bor, S.S.Shatalin, T.G.Brodskiy, D.K.Trifanov va boshqalar) tomonidan iqtisodiy mutanosiblikning mazmunini yoritishga harakat qilingan. Ular mutanosiblikni ishlab chiqarish munosabatlari tizimining tarkibiy qismlari o'rtasidagi mqdoriy bog'liqlik va ushbu tizimni ro'yobga chiqarishni ta'minlovchi vositasi deb hisoblaydilar. Bundan tashqari mutanosiblikka tor doirada yondashilib, uning asosiy mazmuni ishchi kuchini ishlab chiqarish tarkibi nisbatlariga mos ravishda taqsimlashni yo'lga qo'yishdan iborat deb qaralgan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanma va boshqa adabiyotlarning aksariyat qismida iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni, amal qilish shart-sharoitlari va xususiyatlari to'g'risidagi ilmiy hulosalar va ma'lumotlar bayon etilmagan. Bir qator adabiyotlarda bozor muvozanati va makroiqtisodiy muvozanat to'g'risida fikr yuritilsada, ularni ta'minlashning muhim sharti va tarkibiy qismi hisoblangan iqtisodiy mutanosiblik nazardan chetda qolgan.

Ba'zi adabiyotlarda iqtisodiy mutanosiblikni muvozanatlik bilan chalkashtirish holatlari mavjud. Jumladan, A.O'lmasov «iste'mol va jamg'arish muvozanati», «tovar va pul muvozanati» kabi iboralarni qo'llab, iqtisodiy mutanosiblik to'g'risida to'xtalmaydi. Holbuki, o'sha joyning o'zida u «Iste'mol va jamg'arish muvozanati ularning miqdoran tengligi emas, balki ularning optimal nisbatda bo'lishini bildiradi»⁷ deb ta'kidlab, o'zi tomonidan «muvozanat» tushunchasining noo'rin ishlatilganini yaqqol namoyon etadi.

2001 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Idoralararo Muvofiqlashtiruvchi Kengashi majlisida mamlakatimiz Prezidenti

⁷ Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2006. – Б.331-333.

I.A.Karimov tomonidan iqtisodiyotning turli tomonlari o'rtasida jiddiy nomutanosiblik borligi ta'kidlanib, ularni bartaraf qilish zarurligi ko'rsatilganidan keyin MDH mamlakatlari ichida O'zbekistonda bu masalaga e'tibor berila boshlandi va ayrim tadqiqotlar amalga oshirildi.

Ammo bozor iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi juda murakkab bo'lib, u har xil yo'nalishda, sohada, tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan bir necha minglab xo'jaliklar va tashkilotlardan iboratdir. Bu xo'jalik va tashkilotlarning faoliyati har xil bo'lsada, bir xil yagona maqsadga, ya'ni mamlakatimiz aholisiga sifatli tovar va xizmatlar yetkazib berib, yuqori foyda olishga qaratilgandir. Cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanib, bu maqsadga erishish yo'lida harakat qiluvchi iqtisodiyotning turli tomonlari va bo'laklari o'rtasida miqdor va sifat jihatidan ma'lum moslik bo'lishi borgan sari ob'ektiv zaruriyatga aylanib bormoqda.

Bu mutanosiblikni ta'minlash uchun uning mazmuni va amal qilish mexanizmini kengroq va chuqurroq tadqiq qilish talab etiladi. Mutanosiblikning mazmuni juda keng bo'lib, uning tabiiy, umumfalsafiy va umumsotsial tomonlari mavjuddir.

Iqtisodiyotni mutanosib yuritishning asosiy negizi turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni, ya'ni talabni o'rganishdan boshlanadi. Aholining qaysi turdagi tovar va xizmatlarga qanday sifatda va qancha miqdorda talabi borligi, bu turli talablarning o'zaro nisbati aniqlansa, ushbu talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish tarkibi, xajmi va ularni yaratish uchun qancha miqdorda ishchi kuchi va boshqa iqtisodiy resurslar kerakligi va bu resurslar o'rtasidagi nisbatlar aniqlanadi. Shunday qilib, iqtisodiy mutanosiblik bir tomondan turli talab miqdorlari va sifatlari aniqlanib, ular o'rtasidagi ma'lum nisbatlar bo'lishini, bu nisbatlar orqali ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligini, ikkinchi tomondan esa shu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sohalar, tarmoqlar o'rtasida, shuningdek ularni yaratishda ishtirok etuvchi turli omillar o'rtasida ham ma'lum nisbatlar bo'lib, ular bir biri bilan aloqada va o'zaro ta'sirda bo'lishini ifodalaydi. Masalaning eng muhim tomoni mana shu talab turlari o'rtasidagi nisbatlar bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning turlari va

ularni yaratishda qatnashuvchi iqtisodiy resurslarning turlari o'rtasidagi nisbatlar ma'lum darajada bir-biriga bog'liqlikda va muvofiqlikda, ya'ni moslikda bo'lishi zarurdir. Bu jarayon juda murakkab va o'zgaruvchan jarayondir.

Shunga ko'ra, iqtisodiy mutanosiblikning alohida, mustaqil, doimo o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladigan ilmiy kategoriya sifatidagi mazmuni va xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mutanosiblikning turli ko'rinishlariga e'tibor berilib, ular umumiy iqtisodiy, tarmoqlar o'rtasidagi (tarmoqlar o'rtasidagi), tarmoq ichidagi, hududiy mutanosibliklar kabi guruhlariga ajratiladi.

Ushbu turkumdagi mutanosibliklar korxonalarda qo'llanilayotgan yer, kapital bilan ishchi kuchi, iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari, ya'ni texnika, texnologiya bilan xom ashyo, asosiy va aylanma kapitallar o'rtasidagi mutanosibliklarni ifodalaydi⁸.

Iqtisodiy taraqqiyotning turli davr va bosqichlarida mutanosiblikning shakllari, turlari va amal qilish mexanizmlari o'zgarib turadi. Undan tashqari iqtisodiy mutanosiblik boshqa iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqlikda hamda o'zaro ta'sirda bo'ladi, ulardagi o'zgarishlar mutanosiblikning mazmuniga va amal qilish mexanizmlariga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

Iqtisodiy mutanosiblikning amal qilishi, miqdor jihatdan iqtisodiy nisbatlarda o'z aksini topadi. Iqtisodiy nisbatlar ma'lum darajada O.Hamroev tomonidan tadqiq etilib, ularga quyidagicha ta'rif berilgan: «Iqtisodiy proporsiya(nisbat)lar – bu yagona yaxlit tizimning miqdoriy tavsifidir. Ma'lumki, har qanday iqtisodiy jarayon ma'lum bir mohiyat va mazmunni, uning ichki tuzilishi va tarkibini ifoda etadi. Iqtisodiyotda ro'y beradigan barcha voqea va hodisalar ma'lum miqdoriy ko'rsatkichlarda aks ettiriladi»⁹.

⁸ Ўринов А.А. Мутаносиблик – барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим омили. – И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2005. - Б.28.

⁹ Ҳамроев О.Ҳ. Иқтисодий мувозанатликнинг назарий асослари ва уни таъминлаш механизмлари. – И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2004. – Б.95.

Ba'zi adabiyotlarda mutanosiblik va nisbatlarga bir xil tushuncha sifatida qaraladi. Masalan, A.Gryaznova, T.Checheleva tomonidan iqtisodiyotdagi mavjud mutanosibliklar nisbatlar ko'inishida ifodalangan.

O.Hamroevning tadqiqot ishida nisbat bilan mutanosiblik boshqa-boshqa tushuncha ekanligi, jumladan, mutanosiblik – bu yaxlit bir tizimdagi nisbatlar majmui ekanligi, yaxlit tizimdagi barcha nisbatlar ma'lum bir maqsadga muvofiq o'zaro uyg'unlashtirilgan bo'lsagina – bu tizimda mutanosiblik bor deyishga asos bo'ladi¹⁰, deb ta'kidlab o'tgan va o'zining ilmiy ishida iqtisodiy nisbatlarning turli belgi va xususiyatlariga ko'ra turkumlab bergan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy mutanosiblikning ilmiy kategoriya sifatidagi mazmunini ochib berish uning vazifalarini ajratib ko'rsatishni ham taqozo etadi. Iqtisodiy mutanosiblikning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish orqali uning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bir maromda, barqaror ravishda borishi uchun asos yaratish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- iqtisodiy resurslarning davlatlar, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalari, hududlari va boshqa tarkibiy qismlari bo'yicha oqilona va samarali taqsimlanishiga imkon yaratish;
- jamiyatdagi yalpi ijtimoiy mehnatni ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari o'rtasida oqilona taqsimlash va h.k.

Iqtisodiy mutanosibliklarning vazifalarini aniq va izchil ravishda bajarilishi o'z navbatida iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy adabiyotlar tahlili va amaliy tadqiqotlar iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni uning belgilari orqali namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Quyida biz ushbu belgilarning mazmunini batafsil ko'rib chiqamiz.

¹⁰ Хамроев О.Х. Иктисодий мувозанатликнинг назарий асослари ва уни таъминлаш механизмлари. – И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2004. – Б.93.

1. Iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi ekanligi. Mutanosiblikning ilmiy kategoriya sifatidagi mazmunini tadqiq etishda eng avvalo unga iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi jihatidan yondashish zarur. Chunki, iqtisodiy mutanosiblik kishilar o'rtasida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni, ya'ni munosabatlarni namoyon etadi. U kishilik jamiyatidan tashqarida mavjud emas. Shunday ekan, mutanosiblikning muhim belgisi – jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning turli tomonlarini ma'lum nisbatlardagi o'zaro muvofiqligini namoyon etuvchi munosabatlardir.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning o'zgarishi bilan bog'liqligi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, iqtisodiy mutanosibliklar ob'ektiv tavsif kasb etib, takror ishlab chiqarishning barcha fazalari, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlari uchun xosdir. Iqtisodiy mutanosibliklarning paydo bo'lishini insonning dastlabki iqtisodiy faoliyatining yuzaga kelishi bilan bog'lash mumkin. Biroq, ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan iqtisodiy mutanosiblik turlari ko'payib, zarurligi oshib, ko'rinishlari takomillashib boradi.

3. Iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida amal qilishi. Iqtisodiyot o'ta murakkab, serqirra va turli jihatlarni qamrab oluvchi o'ziga xos tizimdir. Iqtisodiyotning samarali amal qilishi va rivojlanishi mana shu tizim tarkibiy qismlarining o'zaro uyg'unlik va muvofiqlikdagi harakatiga bog'liq. Bundan ko'rinadiki, iqtisodiy mutanosiblik iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida amal qilib, ularning maqsadga muvofiq harakatini tartibga soladi.

4. Hodisa va jarayonlarning miqdor va sifat jihatlarini qamrab olishi. Ko'p hollarda mutanosiblik hodisa va jarayonlarning turli tomonlari o'rtasidagi muayyan nisbatlardagi muvofiqlik sifatida qaraladi. Biroq, bu nisbatlar aniq holatlarda nimalar orqali namoyon bo'lishi mavhumligicha qoladi. Ayrim mutaxassislar ushbu nisbatlarning iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasidagi faqat miqdor jihatdan mosligini namoyon etishini ta'kidlaydilar. Bu esa, fikrimizcha, masalaga bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Chunki, mutanosiblikda

nisbatlarning sifat jihatlari ham muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o‘rtasidagi moslikni aniqlashda sifat mezonlaridan foydalanish murakkab jarayon hisoblanadi. Miqdor mezonlari nisbatan aniq, yaqqol namoyon bo‘luvchi va baholashga qulay bo‘lsa, sifat mezonlari, aksincha, bir oz mavhumlik kasb etadi. Masalan, ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi mutanosiblikni baholashda bu ikki jarayonni mahsulot va xizmatlarning qiymati, natural hajmi kabi miqdoriy o‘lchamlari bo‘yicha taqqoslash mumkin. Biroq, haqiqiy mutanosiblikka erishish uchun, ishlab chiqarish tarkibining iste‘mol tarkibiga muvofiqligi kabi sifat jihatlarini ham hisobga olish zarur.

5. Malum bir jarayonning turli tomonlari o‘rtasidagi tenglik bo‘lishining shart emasligi, ular mos keluvchi nisbatlarda bo‘lishi mumkinligi. Biz oldingi bobda iqtisodiy muvozanat to‘g‘risida so‘z yuritganda uning iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi tenglikni taqozo etishini ta’kidlab o‘tgan edik. Muvozanatlikdan farqli o‘laroq, iqtisodiy mutanosiblikda tomonlar o‘rtasidagi tenglik shart bo‘lmay, balki ushbu tomonlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ma’lum nisbatlardagi moslik kifoya qiladi. Ko‘plab mutaxassislar tomonidan ham iqtisodiy mutanosiblik sharoitida tenglikning shart emasligi, ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi¹¹.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, real hayotda iqtisodiy mutanosiblik taqozo etiluvchi tomonlar o‘rtasida tenglik holatlari ham vujudga kelishi mumkin.

6. Umuman iqtisodiyotni, shu jumladan, undagi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishga yo‘naltirilganligi. Iqtisodiy mutanosibliklar iqtisodiyotni tartibga solish xususiyatiga ega. Bunda ular iqtisodiyotning turli tomonlarini o‘zaro bog‘lovchi, oqilona harakatini ta’minlovchi me’yoriy talablar sifatida paydo bo‘ladi. Mazkur me’yoriy talablar har bir iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, rivojlanganlik va erkinlik darajasiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Ularga amal qilmaslik iqtisodiy nomutanosibliklar, ya’ni uning turli tomonlarining

¹¹ Қаралсин: Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – B.524.

muvofoiq kelmasligi natijasida barqaror va izchil, bir maromda rivojlanishning izdan chiqishiga olib keladi.

7. Turli omillar ta'sirida o'zgaruvchanligi. Iqtisodiy mutanosiblik ijtimoiy xo'jalikning turli tomonlarini qamrab olar ekan, ayni paytda uning tarkib topishi va amal qilishi ham ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Biz mutanosibliklarning alohida turlari bo'yicha ularga ta'sir qiluvchi omillarni oldindan aniqlab, ular maqsadga muvofoiq namoyon bo'ladi. Biroq, iqtisodiy hayotning turliligi, undagi voqyea va hodisalarning o'zgaruvchanligi mazkur mutanosiblik jarayonlarga turli omillarning ta'sirini ham keltirib chiqaradi. Bu esa iqtisodiy mutanosibliklarning uzoq vaqt davomida bir xil bo'lib tura olmasligi, o'zgaruvchanlik xususiyatga ega ekanligini bildiradi.

8. Buzilgan nisbatlarning o'z-o'zidan qayta tiklanishga intilishi. Mutanosibliklar iqtisodiyotdagi o'zgarishlar va tasodifiy omillar ta'sirida o'zgarib, bazan buzilib, izdan chiqib turar ekan, ayni paytda ularning tabiatida mustaqil (avtomatik) ravishda qayta tiklanishga intilish ham mavjud bo'ladi. Chunki, mutanosibliklarning buzilishi, ularning turi va darajasidan kelib chiqqan holda, turli iqtisodiy sub'ektlar manfaati muvozanatining buzilishiga olib keladi. Bu esa, umu-miy holda, iqtisodiy sub'ektlar tomonidan olinayotgan naflilik darajasi-ning pasayishi orqali namoyon bo'ladi. Naflilik darajasini oshirishga intilish ko'plab iqtisodiy dastaklar (bozor, talab va taklif, narx, raqobat va boshqa mexanizmlar) orqali mutanosiblikni qayta tiklashga tomon undaydi. Shunga ko'ra, mutanosiblikning amal qilishini ham «mutanosiblikning vu-judga kelishi - mutanosiblikning buzilishi - mutanosiblikning qayta tiklanishi» sxemasi orqali ifodalash mumkin. Biroq, mutanosibliklarning o'z-o'zidan qayta tiklanish xususiyatini ro'yobga chiqarishi uchun iqtisodiyotda ma'lum shart-sharoitlar, jumladan, sog'lom iqtisodiy muhit, iqtisodiy erkinlik, ijobiy tarkibiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish va boshqa imkoniyatlar mavjud bo'lishi lozim.

9. Turli xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi muayyan tizimga egaligi. Iqtisodiy mutanosibliklarning mazmun-mohiyatini chuqurroq bayon etish maqsadida

ularning turli ko'rinishlari bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir. Bunday turkumlash shunchaki rasmiy tavsif kasb etmay, balki mutanosibliklarning iqtisodiy hodisa va jarayonlardagi rolini ochib berish hamda tahlil qilishda maqsadga muvofiq yondashish imkonini beradi.

1.2. Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar va ularning tarkibiy o'zgarishlar jarayonidagi roli

Har qanday milliy iqtisodiyot muayyan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lib, u ko'plab soha va tarmoqlarning majmuidan iborat. Milliy iqtisodiyot samarali amal qilishi uchun barcha bo'lim, soha va tarmoqlar o'rtasida uyg'unlik ta'minlanishi lozim hisoblanadi. Bunda milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotning tarmoq jihatidan tuzilishi bir tomondan, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum ta'siri bo'lsa, boshqa tomondan, tabiiy-tadrijiy jarayon natijasi bo'lib hisoblanadi.

Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklarning zarurligi quyidagilarda ifodalanadi:

- 1) ba'zi tarmoqlar ishlab chiqarish samaradorligining xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatiga bog'liqligi;
- 2) tarmoq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna, jihozlar va texnika vositalarining boshqa tarmoqlarda yaratilishi;
- 3) muayyan tarmoqda yaratilgan mahsulotning boshqa tarmoq uchun xom ashyo, yarimfabrikat yoki butlovchi qism bo'lib xizmat qilishi;
- 4) iqtisodiyotning yaxlit organizm sifatida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining uning tarkibidagi turli tarmoqlar o'rtasidagi oqilona nisbatga bog'liqligi va h.k.

«Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq

xo'jaligining dexqonchilik va chorvachilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar va h.k. Shu bilan birga keltirilgan sohalar ichidagi tarkibiy bo'linmalar o'rtasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur»¹².

Turli mamlakatlar iqtisodiyotidagi soha va tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar bir-birlaridan farqlanishi mumkin. Bunda mazkur turdagi mutanosiblikning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omillar muhim o'rin tutadi.

Ko'p jihatdan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikning holati va darajasi bog'liq. Mamlakatlar rivojlanib borishi bilan ular iqtisodiyotidagi soha va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar ham sezilarli o'zgarib boradi. Bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqarish sohalari, xom ashyo yetkazib berish va uni qayta ishlash tarmoqlari o'rtasidagi nisbatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Jumladan, «postindustrial rivojlanish bosqichida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi(uchlamchi sektor)ning ulushi sezilarli o'sib, moddiy ishlab chiqarish sohasi (birlamchi va ikkilamchi sektorlar)ning ulushi qisqardi. Ushbu mamlakatlarning YaIM tarkibida 60-90 yillarda qishloq xo'jaligining ulushi izchil ravishda pasayib bordi(1960 yildagi 6,5%dan 1980 yilda 4,2% va 1995 yilda 3%gacha).

...XX asrning ikkinchi yarmida sanoati rivojlangan mamlakatlar YaIM tarkibidagi o'zgarishlarning muhim tendensiyasi bo'lib noishlab chiqarish sohasi (uchlamchi sektor)ni iqtisodiyotning salmoqli qismiga aylanishi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi operatsiyalar hajmi ushbu mamlakatlarda qayta ishlash sanoatdagi ishlab chiqarish hajmidan oshib ketdi»¹³.

Rivojlangan mamlakatlar YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining hissasi ahamiyatli darajada o'sib, qishloq xo'jaligining ulushi esa aksincha kamayib bormoqda.

¹² Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – B.526.

¹³ Мировая экономика: Учебник / Под ред. проф. А.С.Булатова. – М.: Экономистъ, 2005. - С.147.

Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri – mamlakatning iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish darajasidir.

«Iqtisodiy salohiyat» tushunchasi mamlakatdagi iqtisodiy resurslar majmui va ularni ishlab chiqarishga safarbar etish qobiliyatini anglatadi. Iqtisodiy salohiyati va ulardan foydalanish darajasi turli mamlakatlarda turlicha bo'lganligi sababli, ulardagi soha va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar ham o'zaro farq qiladi. Misol uchun, neftni eksport qiluvchi OPeK tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotida neftni qazib olish va uni qayta ishlash tarmog'i yetakchi o'rin egallab, qolgan tarmoqlar unga nisbatan o'ziga xos tarzda rivojlanadi.

Tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarning shakllanishiga mamlakatning tabiiy-geografik jihatdan joylashuvi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo'lmagan mamlakatlarda (masalan, Yaponiya) sanoat yaxshi rivojlansa, xizmat ko'rsatish va boshqa resurslarni kam sarflovchi tarmoqlar, arzon ishchi kuchi mavjud mamlakatlarda qo'l mehnati bilan bog'liq sohalar, unumli, serhosil tuproq, mo'tadil iqlim, yetarli suv resurslariga ega bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlash keng rivojlanadi.

Milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning shakllanishiga nafaqat ichki omillar ta'sir qilishi bilan birga, tashqi omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lmaganida tarmoqlar o'rtasida umuman boshqa ko'rinishdagi va darajadagi mutanosiblik vujudga kelgan bo'lar edi.

Mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi va tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki ham ko'p jihatdan ularning iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishining notekisligiga bog'liq. Jumladan, «tabiiy resurslar mamlakatlar o'rtasida o'ta notekis taqsimlangan. Faqatgina 20-25 mamlakat mineral xom ashyoning qandaydir biror turining 5 foizdan ortiqrog'iga ega. Jahonning bir necha yirik mamlakatlarigina (Rossiya, AQSh, Kanada, Xitoy, JAR va Avstraliya) uning ko'plab turlariga ega.

Deyarli hych bir mamlakat zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan barcha turdagi mineral xom ashyo zaxiralariga ega emas, ularni import qilmasdan xo'jalik yurita olmaydi. Masalan, Rossiya o'zida mavjud bo'lgan mineral resurslarning turli-tumanligi va miqdorining kattaligiga qaramay, boksit, qalay, marganetsni katta hajmda import qilishga majbur. AQSh faqat mavjud mineral xom ashyolarning 22 turi bo'yicha o'z ehtiyojlarini ta'minlaydi xolos, ayni paytda uran, volfram, xrom, marganets kabi xom ashyolarni import qilishga majbur. Umuman olganda AQSh o'zlariga kerakli mineral xom ashyoning 15-20 foizini (qiymat ko'rinishida) import qiladi. yelga a'zo mamlakatlar iste'mol qilinayotgan mineral xom ashyosining 70-80 foizini, Yaponiya 90-95 foizini chetdan olib keladi»¹⁴. Bundan ko'rindiki, o'zida nisbatan yetarli bo'lgan xom ashyo va kam xarajat sarflab ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti, taqchil resurs va mahsulotlarning importi o'z navbatida milliy iqtisodiyotning tarmoqlar o'rtasidagi nisbatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikning ahamiyati u bajaradigan quyidagi vazifalar orqali namoyon bo'ladi:

- 1) milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;
- 2) turli ehtiyojlarning mumkin qadar kengroq doirasini qondirish imkoniyatini yaratuvchi tovarlar va xizmatlar hajmi va tarkibini kengaytirish;
- 3) ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- 4) iqtisodiy resurslardan samarali va tejimli foydalanish;
- 5) iqtisodiyotning samarali va optimal tarkibiy tuzilmasini shakllantirish;
- 6) iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va h.k.

Uzoq yillar davomida iqtisodiy fanda milliy iqtisodiyotning tarkibi asosan moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga ajratib o'rganilib kelindi. Qiymat faqat ishlab chiqarish sohasida yaratiladi deb, xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati umuman e'tirof etilmadi. Bu esa ko'pgina mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarishga ustuvorlik qaratilib, xizmat ko'rsatish sohasining

¹⁴ Мировая экономика: Учебник / Под ред. проф. А.С.Булатова. – М.: Экономистъ, 2005. - С.121.

e'tibordan chetda qolishi hamda iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi.

Umuman olganda aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklarning shakllanishi tabiiy-evolyusion yo'l bilan bordi. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida yengil sanoat tarmoqlari ustuvor ravishda rivojlanib, keyin og'ir va mashinasozlik sanoati tarmoqlari rivojlana boshladi. Dastlabki davrda iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bo'linmasi ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish bo'linmasiga nisbatan, moddiy ishlab chiqarish sohasi xizmat ko'rsatish sohasiga nisbatan ustuvorlikka ega bo'lganligi ham buning yaqqol ifodasidir.

Umumiqtisodiy rivojlanish qonuniyatlariga ko'ra inson eng avvalo yuqori darajadagi zaruratni namoyon etuvchi, ya'ni moddiy-fiziologik ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladi. Shunga ko'ra u dastlab tabiatda tayyor holda mavjud bo'lgan ne'matlardan foydalangan. Biroq, kishilik jamiyatining rivojlanishi va ehtiyojlarning o'sib borishi faqat mavjud ne'matlar iste'moli bilan cheklanib qolmay, balki tabiat ashyolarini o'zgartirib, ehtiyojga mos holdagi va hajmdagi mahsulotlarni tayyorlash zaruratini keltirib chiqardi. Keyinchalik tovar-pul munosabatlari ham dastlab aynan moddiy ishlab chiqarish sohasida paydo bo'lib, uning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Biroq, moddiy ishlab chiqarishning keyingi taraqqiyoti ko'p jihatdan xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ham bog'liq edi.

Agar moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining tarixiy negizlariga razm solinsa, dastlabki ibtidoiy xo'jalikdagi ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanish moddiy ishlab chiqarish sohasiga, bolalar parvarishi, yashash sharoitini ta'minlash (olovni saqlab turish, yashash joylarining ozodaligini ta'minlash va h.k.), ozuqa zaxiralarini saqlash, bemorlarni davolash va boshqalar xizmat ko'rsatish sohasiga asos solgan.

Hozirda xizmat ko'rsatish sohasining ustun rivojlanishi quyidagi sabablarga asoslanadi:

1) rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida asosiy e'tiborning mahsulot ishlab chiqarishdan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilishi;

2) xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatining nisbatan kengligi.

3) moddiy ishlab chiqarish sohasidan bo'shagan ortiqcha ishchi kuchining xizmat ko'rsatish sohasiga o'tishi;

4) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xizmat ko'rsatish sohasiga bo'lgan ehtiyojning o'sishi;

5) moddiy ishlab chiqarish sohasi texnologik darajasining yuksalishi xizmat ko'rsatish sohalari mehnat salohiyatining o'sishiga olib kelishi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik nisbatan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, barchamizga ma'lumki, sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimida mamlakatimiz faqat qishloq xo'jaligi xom ashyosini yetishtirib berishga ixtisoslashtirilgan agrar respublikaga aylanib qolgan edi. Unda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi juda past darajada bo'lib, deyarli barcha sanoat mahsulotlari boshqa respublikalardan keltirilar edi. Bu esa mamlakatimizda tarmoqlar o'rtasidagi faoliyatlar va mahsulotlarning me'yordagi almashinuvi va harakatiga to'sqinlik qilib, ayniqsa sobiq tizim parchalangandan keyin jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi muammolar paydo bo'ldi. Shunga ko'ra, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan iqtisodiy vazifalardan biri – qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi optimal mutanosiblikni ta'minlashdan iborat edi. Buning uchun esa sanoat tarmog'ini, ayniqsa uning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarini ustuvor ravishda rivojlantirish kerak edi.

Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilgan chora-tadbirlar sanoat ishlab chiqarishining jadal ravishda o'sishiga olib keldi.

2003-2012 yillar mobaynida sanoat yaxlit holda olingan respublika iqtisodiyotiga qaraganda yuqoriroq sur'atlarda o'smoqda. Bunday tarkibiy

o'zgarishlar natijasida respublikada sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik o'zgarib bormoqda.

I-bob bo'yicha xulosalar

1. Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, uzoq yillar davomida ko'pchilik olim va mutaxassislar tomonidan asosan muvozanatlik muammosiga e'tibor berilib, mutanosiblik masalasi asosan e'tibordan chetda qolgan; ba'zi olimlar tomonidan iqtisodiy mutanosiblik faqat muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos hodisa deb ko'rsatilgan; mutanosiblik kategoriyasiga tor doirada yondashilib, uning asosiy mazmuni ishchi kuchini ishlab chiqarish tarkibi nisbatlariga mos ravishda taqsimlashni yo'lga qo'yishdan iborat deb qaralgan; hozirda ham mutanosiblik kategoriyasiga bozor iqtisodiyoti tizimiga xos munosabat emas deb qaralib, unga e'tibor berilmasdan kelinmoqda; iqtisodiy mutanosiblikni muvozanatlik bilan chalkashtirish holatlari mavjud;

2. Iqtisodiy mutanosiblikning mazmunini ifodalash borasida quyidagi asosiy talqinlar mavjud: ijtimoiy mehnatning ijtimoiy ehtiyojga mos ravishda tarmoqlar va sohalar bo'yicha taqsimlanishi; ishlab chiqarish munosabatlari tizimining tarkibiy qismlari o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik va ushbu tizimning maqsadini ro'yobga chiqarishning ta'minlovchi vositasi; turli iqtisodiy qonun va jarayonlarning amalga oshish sharti; iqtisodiy jarayon va hodisalarning tartiblashgan nisbati, ular o'rtasidagi muvozanatlikni ta'minlovchi va o'zaro aloqani ifodalovchi vosita; inson faoliyatining butun sohalarini qamrab oluvchi umumiqtisodiy va umuminsoniy kategoriya;

3. Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli sohalar, tarmoqlari, tomonlari va bo'limlari o'rtasidagi miqdor va sifat jihatidan muayyan nisbatlardagi o'zaro moslik bo'lib, barqaror ravishda takrorlanib turuvchi doimo xarakatda, o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ifodalovchi umumiqtisodiy kategoriyadir, unga amal qilinishi iqtisodiyotning barqaror, tebranishlarsiz, inqrozlarsiz rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi;

4. Iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni uning quyidagi belgilari orqali namoyon bo'ladi: iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi ekanligi; ijtimoiy-iqtisodiy tizimning o'zgarishi bilan bog'liqligi; iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida amal qilishi; hodisa va jarayonlarning miqdor va sifat jihatlarini qamrab olishi; ma'lum bir jarayonning turli tomonlari o'rtasidagi tenglik bo'lishi shart bo'lmasdan, ular mos keluvchi nisbatlarda bo'lishi mumkinligi; umuman iqtisodiyotni, shu jumladan, undagi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishga yo'naltirilganligi; turli omillar ta'sirida o'zgaruvchanligi; buzilgan nisbatlarning o'z-o'zidan qayta tiklanishga intilishi; turli xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi muayyan tizimga egaligi;

5. Iqtisodiyotda mutanosiblikni ta'minlashning ob'ektiv zarurligi quyidagi omillar orqali asoslanadi: umumiy iqtisodiy ahamiyat kasb etuvchi omillar: cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni yuqori darajada qondirish; ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi va rivojlanishi; ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining amal qilishini ta'minlash; ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishini ta'minlash. Milliy iqtisodiyotning samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omillari: iqtisodiyotning samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirish; barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash; investitsiya jarayonlarini jadallashtirish, investitsion faollikni rag'batlantirish; milliy valyuta tizimining barqarorligini oshirish, inflyasiya jarayonlarining oldini olish; iqtisodiy sikllarning oldini olish, iqtisodiyotning bir maromda rivojlanishini ta'minlash; aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish; iqtisodiy resurslardan tejimli va samarali foydalanish.

II -BOB. O‘ZBEKISTONDA TARMOQLAR O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNING HOLATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Milliy iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblik holati va muammolari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish uchun milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlari o‘rtasidagi nisbatlarning mutanosibligini ta'minlash lozim bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyot ikkita katta sohaga bo‘linadi: moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari. Hozirgi davrda ular o‘rtasida nomutanosiblik mavjud bo‘lib, moddiy ishlab chiqarishning YaIMdagi ulushi 40,3 foizni, xizmat ko‘rsatishning ulushi 52 foiz¹⁵ ni, mahsulot va eksport-import muomalalariga sof soliqlar 7,7 foizni tashkil etmoqda. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining YaIMdagi ulushi 60-75 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bunda albatta moddiy ishlab chiqarish sohasi rivojlanib, oz kishi bilan talabni bemaol qondira oladigan darajaga borishi kerak, mehnat unumdorligi yuksak bo‘lishi lozim.


Ilgari iqtisodiyot, asosan, moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalaridan iborat deb tushunilar edi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy mahsulotlar va ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kirgan. Ular jumlasiga sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklari, qurilish, yuk tashuvchi transport va boshqalar kirgan. Nomoddiy sohaga aholiga nomoddiy, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar, chunonchi, fan va unga xizmat ko‘rsatish, maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, yo‘lovchilar tashuvchi transport, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi aloqa va savdo kabi tarmoqlar kirgan.

¹⁵ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –Б.14.

Iqtisodiyotning bunday tuzilishi moddiy ishlab chiqarishning ustuvorligi nuqtai nazariga asoslangan.

Keyingi yillarda moddiy va nomoddiy sohalarida xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'zni borligiga ham e'tibor berilmoqda. Shu boisdan rus olimi ye.Borisov va o'zbek olimasi D.Tojiboevalarning o'quv qo'llanmalarida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi berilgan. Unda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohaları hamda shunga monand tarzda moddiy va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohaları berilgan.



2.1.1-rasm. Zamonaviy ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi¹⁶

Milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish jarayonlarida xizmat ko'rsatish sohasi muhim rol o'ynaydi. Xizmat ko'rsatish sohasi ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi oqibatida vujudga kelib, aholi iste'moli hajmining o'sishi bilan bog'liq ravishda taraqqiy eta boshladi.

Kapitalizm rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqarish, asosan, moddiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan

¹⁶ Қаранг: Борисов Е.В. Экономическая теория. Курс лекций для студентов высших учебных заведений. - М.: Юрист, 1998. - С.23; Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 2002. - 41-б.

edi. Dastlabki kapital jamg'arish va sanoat revolyusiyalari sharoitida yengil sanoat tarmoqlari ustuvor ravishda rivoj topdi. Undan so'ng og'ir va mashinasozlik sanoati tarmoqlari rivojlana boshladi. Dastlabki davrda moddiy mahsulot shakli iste'mol buyumlari bo'lib, kishilarning iste'molini qondirishga yo'naltirilgan. Bu davrda iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bo'linmasi ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish bo'linmasiga nisbatan ustuvorlikka ega bo'lgan. Shuningdek, moddiy ishlab chiqarish sohasi xizmat ko'rsatish sohasiga nisbatan ustivorlik berilgan. Keyinchalik esa ishlab chiqarish vositalari bozorining kengayib borishi sababli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish bo'linmasining hamda xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushlari orta borgan. XX asrning o'rtalariga kelib, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalari taraqqiy eta boshladi.

Sobiq SSSRda industrilashtirish amalga oshirilib, harbiy sanoat kompleksiga xizmat ko'rsatuvchi og'ir industriya tarmoqlariga ustuvorlik berilgan edi. Shuning uchun ham iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish ancha cheklangan edi. Xizmat ko'rsatish sohasining ham rivojlanishi orqada qoldi. Ayniqsa, ijtimoiy xizmat ko'rsatish «qoldiq» tamoyili asosida amalga oshirilardi. Shuning uchun ham iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bo'limi hamda xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyot va ijtimoiy takror ishlab chiqarishda muhim o'rin tutmas edi. Oqibatda bir tomonda moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasida, ikkinchi tomonda esa ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasida nomutanosibliklar vujudga keldi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanish rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining hamda iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish tarmoqlarining ustuvor ravishda rivojlanishini ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi hamda jami taklif bilan jami talab o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan vujudga keladigan ziddiyat, nomutanosiblik va nomuvofiqlikdir.

Ingliz olimi Jon Meynard Keyns nazariyasiga ko'ra, ishlab chiqarish va iste'mol jami talab va jami taklif o'rtasidagi farqni, ziddiyatni muvofiqlashtirish uchun davlat va xususiy sektorda investitsion faollilikni rag'batlantirishi lozim bo'ladi. Multiplikatsion samara asosida investitsiyalar oqibatida o'sayotgan daromadlar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish nisbatlarining muvozanatlashuvini ta'minlashi kerak¹⁷. Keyinchalik keynschilar xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni alohida tahlil qilganlar.

XX asrning 40-yillaridayoq inglik olimi K.Klark va fransuz sotsiologi J.Furaste jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida industrial tarmoqlarga nisbatan xizmat ko'rsatish sohalarining ustuvor yo'nalishini asoslab berdilar¹⁸.

Ularning qarashlariga muvofiq, sanoatning ishlab chiqaruvchilar tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining kengayishi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va uning kooperatsiyalashuvi oqibatida mehnat unumdorligining o'sib borishi qonuni amal qiladi. Bundan quyidagi muhim oqibatlar kelib chiqadi:

Birinchidan, mehnat unumdorligining o'sishi oqibatida ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholining ish haqi, daromadlari ham tez o'sib boradi.

Ikkinchidan, ushbu tarmoqlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar bilan bozor to'yinadi, shuningdek, aholi daromadlarining o'sishi natijasida ularning moddiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlari to'liqqondiriladi.

Uchinchidan, moddiy mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori darajada qondirila borishi oqibatida aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari o'sib boradi.

¹⁷ Қаранг: Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Перевод с английского. - М.: Иностранная литература, 1998. -С.90-91.

¹⁸ Қаранг: Набиев Э. Экономическое преобразования и сфера услуг. - Т.: ТГЭУ, 1994. - С.8.

Talabning tarkibiy tuzilishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Turli tuman xizmat turlariga bo'lgan talab o'sib boradi.

K.Klark va J.Furastelarning fikrlariga ko'ra, agrar xom ashyo sektorida mehnat unumdorligining pasayib borishi tendensiyasi yuz beradi. Buning oqibatida ushbu tarmoqlarda daromadlilik pasayib boradi. Shuning uchun ham ushbu sohada band bo'lgan aholining bir qismi boshqa sohalarga, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohalariga o'ta boshlaydilar.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat unumdorligi nisbatan o'zgarmas yoki sekin o'sish tamoyiliga ega. Bunga xizmat ko'rsatishning individualligi hamda qo'l mehnatiga asoslanganligidir. Xizmat ko'rsatish hajmining o'sishi, asosan, uning turlari ko'payishi hisobiga amalga oshadi.

Ushbu tendensiyalar xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bu sohada kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga hamda ish bilan band aholining ko'payishiga olib keladi¹⁹.

Xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omil ehtiyojlarning o'sib borishidir. Insonlarning yashashi, har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan barcha ne'matlar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi. Alfred Marshall nemis iqtisodchisi Germanning fikriga asoslanib, ehtiyojlarni absolyut va nisbiy, minimal va maksimal darajadagi ehtiyoj, qondirilishi zarur va qondirilishini kechiktirsa bo'ladigan, bevosita va bilvosita qondiriladigan ehtiyojlarga bo'ladi. Shuningdek, ularni birlamchi va ikkilamchi ehtiyojlarga ham bo'lishadi. Birlamchi ehtiyojlarga insonning eng zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va shunga o'xshash ehtiyojlari, ikkilamchi ehtiyojlarga esa insonning ma'naviy, intellektual faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bilim olish, san'at, turli ko'ngilochar tadbirlarga qatnashish kabi ehtiyojlarni keltirish mumkin.

¹⁹ Qarang: Набиев Э. Экономическое преобразования и сфера услуг. - Т.: ТГЭУ. 1994. - С.10-11.

Moddiy ehtiyojlar birlamchi ehtiyojlar bo‘lib, ularning qondirilishi darajasining o‘shishi va yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi natijasida xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj ham o‘sa boradi.

Xizmatlarga bo‘lgan talabning o‘shishiga mehnat unumdorligini ta'minlash zarurati ham ta'sir qiladi. Buning uchun ishlab chiqarishni texnologik jihatdan ta'minlash va xodimlar, ishlovchilarning malakasini yuqori darajaga ko‘tarish lozim bo‘ladi. Yuqori malakali ishlovchilar esa yuqori ish haqi oladilar. Demak, yuqori ish haqi, daromad bilan yuqori bilim darajasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud²⁰. Bilim va malaka darajasini oshirish uchun esa xizmat turlariga talab ortadi. Chunki ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun ta'lim, sog‘liqni saqlash, madaniy, maishiy va boshqa xizmat ko‘rsatish turlariga talab ham orta boradi.

2.1.1.-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda YaIM tarkibiy tuzilishining o‘zgarishi, foizda²¹

Mamlakatlar	Yillar	Qishloq xo‘jaligi	Sanoat	Xizmat ko‘rsatish sohasi
AQSh	1960	4	34	58
	1980	3	30	62
	1996	2	28	70
	2008*	1	22	77
Yaponiya	1960	13	37	45
	1980	5	32	53
	1996	2	32	60
	2008*	1	30	68
Germaniya	1960	6	46	40
	1980	2	38	51
	1996	2	34	59
	2008*	1	30	69
Fransiya	1960	9	40	43
	1980	5	30	60
	1996	3	24	68
	2008*	2	21	77

*Izoh: 2008 yil ma'lumotlari "Selected World Development Indicators" 2010 dan olingan.

²⁰ Qarang: Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы и проблемы и политика. В 2-х т. Пер. с англ. 11 -го изд. -М.: Республика. Т.2. - С.171.

²¹ Manba: Monthly Bulletin of Statistics. 1998. №7. P.34-36.

Sanoat ishlab chiqarishning yuqori texnologik darajada rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohalari mehnat salohiyatining o'sishiga olib keladi. Ushbu omillar ta'sirida rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalari taraqqiy etib bordi. AQShda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1960 yilda 58,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1996 yilda 70,0 foizni, 2008 yilda 77 foizga yetdi. Shunga muvofiq ravishda sanoat va qurilishning YaIMdagi ulushi shu davrda 34 foizdan 22 foizga tushib qoldi (qarang 2.1.1-jadval).

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushlari kamayib bormoqda. Hozirgi davrga kelib, xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsuloti ulushlari rivojlangan mamlakatlarda 60-75 foizni tashkil qilmoqda.

2.1.2 - jadval

O'zbekistonda YaIMning ishlab chiqarish tarkibi, foizda²²

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Sanoat	15,8	17,5	21,1	21,8	21,0	23,5	23,6	23,9	24,0	24,0
Qishloq xo'jaligi	28,4	26,4	26,3	25,1	23,2	19,7	18,6	18,0	17,8	17,5
Qurilish	4,7	4,8	4,8	5,1	5,9	5,6	6,8	6,5	6,1	5,9
Xizmat sohasi tarmoqlari	37,4	37,2	37,2	37,9	39,8	41,3	41,4	42,4	43,5	44,9
Sof soliqlar	13,7	14,1	10,6	10,1	10,1	9,9	9,6	9,2	8,6	7,7

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng xizmat ko'rsatish sohalari rivojlana boshladi. Bu, asosan, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmining o'sishi hisobiga yuz berdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ko'plab xizmat turlarining tijorat asosida tashkil etilishi, ko'pchiligining xususiylashtirilishi xizmat ko'rsatish sohasida biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga olib keladi.

²² Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. -Т.: “Хаёт нашр” МЧЖ, 2013.33-б.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda xizmat ko'rsatish sohasining sezilarli darajada rivojlanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, ushbu sohaning YaIM tarkibidagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Jadvaldan ko'rinadiki, mamlakatimiz YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 2003 yildagi 37,4 foizdan 2012 yilda 44,9 foizga yetgan, ya'ni 7,5 foizga o'sgan. Sanoat tarmog'ining ulushi tegishli ravishda 15,8 foizdan 24,0 foizga yetgan, ya'ni 8,2 foizga o'sgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining ulushi 38,4 foizdan 17,5 foizga tushgan, ya'ni 10,9 foizga qisqargan.

Ish bilan band bo'lganlarning tarmoqlar bo'yicha bandligini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

2.1.3-jadval

O'zbekistonda ish bilan band bo'lganlarning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (foiz hisobida)²³

Ko'rsatkichlar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Jami band bo'lganlar Shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	31,9	30,7	29,1	28,1	27,9	27,5	25,6	26,9	27,2	26,7
Sanoat	12,8	13,0	13,2	13,4	13,5	13,5	13,4	13,2	13,1	13,0
Transport va aloqa	4,5	4,6	4,8	4,8	4,9	5,0	5,1	5,2	5,2	5,2
Qurilish	8,0	8,2	8,3	8,4	8,5	8,6	8,9	9,2	9,2	9,3
Savdo va xizmat, umumiy ovqatlanish	8,5	8,7	8,9	9,3	9,8	10,3	10,5	10,7	10,8	10,9
Kommunal xizmat	3,0	3,0	3,1	3,2	3,2	3,3	3,4	3,4	3,5	3,5
Sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va sport	6,8	7,0	7,2	7,3	7,5	7,6	7,6	7,7	7,6	7,6
Ta'lim, madaniyat va san'at, ilm-fan sohasi	13,1	13,3	13,6	13,7	13,8	13,9	13,9	13,8	13,7	13,4
Moliya, kredit va sug'urta idoralari	0,5	0,5	0,5	0,5	0,6	0,5	0,5	0,6	0,6	0,5
Boshqa tarmoqlar	10,9	11,0	11,3	11,3	10,3	9,8	11,1	9,3	9,1	9,9

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish bilan band bo'lganlar tarkibini tahlil qilish quyidagilarni aniqlash imkonini berdi:

²³ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. -Т.: "Хаёт нашр" МЧЖ, 2013.62-б.

- qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar ulushi yildan yilga kamayib borishi ijobiy tendensiya bo'lib, bu hol ortiqcha, unumsiz ish bilan band bo'lganlarning iqtisodiyotning boshqa sohalariga o'tayotganligidan dalolat beradi;

- bu ma'lumotlar hamon qishloq xo'jaligida ortiqcha, unumsiz ish bilan bandligining mavjudligini ko'rsatmoqda;

- sanoatda ish bilan bandlarning umumiy soni va ulushi o'sib bormoqda. Bu hol ushbu sohaning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushining o'sib borishi bilan bog'liq ravishda sodir bo'lmoqda;

- aholi ish bilan bandligining tarmoq tuzilishi iqtisodiyot tarmoq tuzilishini va undagi nomutanosibliklarni hamda tarkibiy o'zgarishlar tendensiyasini ifodalaydi.

Ushbu ma'lumotlar xizmat ko'rsatish sohalarida ish bilan bandlikning, shuningdek, iqtisodiyotdagi o'рни va rolining o'sib borayotganligini ham ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nisbatlarning nomutanosibligi eksport va import tarkibida ham nomutanosibliklarni keltirib chiqargan.

Demak, bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda tarmoqlar o'rtasidagi xamon nomutanosibliklar saqlanib qolganligini ko'rsa/moqda. Milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi tub o'zgarishlar hamda mavjud nomutanosibliklarni mamlakatning eksport va import tarkibidagi nomutanosibliklarda ham ko'rish mumkin (2.1.4-jadval).

Ushbu ma'lumotlar tashqi savdo saldosi ijobiy bo'lgani bilan iqtisodiyotning xom ashyoga yo'naltirilganlik darajasining yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Tahlil davrida paxta tolasining eksportdagi ulushi 2 barobardan ziyodga kamaygan. Oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish 2 barobarga ko'paygan.

Import tarkibi ham o'zgarib bormoqda. Uning tarkibida kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar ulushining o'sib borishi milliy iqtisodiyot tarkibiy

tuzilishida ijobiy oʻzgarishlar yuz berayotganligini koʻrsatadi. Ammo import tarkibida hamon mashina-uskunalar va tayyor mahsulotlar ulushining yuqoriligi iqtisodiyot tarmoq tuzilishida hamon jiddiy nomutanosibliklarning mavjudligidan dalolat beradi.

2.1.4-jadval

Oʻzbekiston eksporti va importi tarkibi (yakuniga nisbatan foiz hisobida)²⁴

	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Eksport hajmi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:										
Paxta tolasi	19,8	18,1	19,1	17,2	12,5	9,3	8,6	12,1	9,0	9,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,7	3,8	3,8	7,9	8,5	4,5	6,0	9,7	13,3	6,4
Kimyo va undan tayyorlangan maxsulotlar	3,1	4,7	5,3	5,6	6,8	5,6	5,0	5,1	5,6	5,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	9,8	12,4	11,5	13,1	20,2	24,7	34,2	22,8	18,5	34,6
Qora va rangli metallar	6,4	8,6	9,2	12,9	11,5	7,0	5,0	6,9	7,4	7,8
Mashina va asbob-uskunalar	5,9	7,4	8,4	10,1	10,4	7,6	2,9	5,5	6,6	6,5
Xizmatlar	14,4	11,8	12,2	12,1	10,7	10,4	8,8	10,2	11,8	17,3
Boshqalar	37,9	33,2	30,5	21,1	19,4	30,9	29,5	27,7	27,8	12,5
Import - jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:										
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,9	6,8	7,0	7,7	7,2	8,3	9,0	10,5	11,5	10,9
Kimyo va undan tayyorlangan maxsulotlar	12,8	12,5	13,6	13,8	13,1	11,6	11,1	13,8	12,5	13,7
Mashina va uskunalar	44,4	46,0	43,3	47,0	49,6	52,4	56,5	44,0	44,0	45,9
Xizmatlar	10,2	11,1	10,4	8,4	5,8	4,4	4,4	5,3	5,0	5,8
Boshqalar	12,1	11,2	12,9	12,2	13,3	11,0	9,2	11,2	10,9	9,9

Iqtisodiyot sohalari, tarmoqlari ixtisasidagi nisbatlarning nomutanosibligiga barham berish, ularning mutanosibligini ta'minlash

²⁴ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. -Т.: “Хаёт нашр” МЧЖ, 2013.324-б.

barqaror iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi. Buning uchun milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishida tubdan, chuqur o'zgartirishlarni uzluksiz davom ettirish lozim bo'ladi.

2.2. Respublikamizda qishloq ho'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holatining tahlili

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish hamda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash mavjud resurslardan oqilona va tejamli foydalanishni taqozo etadi. O'z navbatida, resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlash iqtisodiyotning turli darajalaridagi mutanosibliklarning ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi.


Umuman olganda, iqtisodiyotni mutanosib rivojlantirish orqali barqaror o'sishni ta'minlash iqtisodiyotning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari barqarorligining ta'minlanganligi milliy iqtisodiyot salohiyatidan, ichki va tashqi rivojlanish imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanilayotganligini anglatadi. Demak, bunday iqtisodiyotning turli tarkibiy qismlari o'rtasida uzviylik ta'minlagan va iqtisodiy mutanosibliklar to'g'ri shakllantirilgan hisoblanadi.

Prezidentimiz I. Karimov keyingi yillardagi barcha ma'ruzalarida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlariga erishishda mutanosiblikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, «Biz bugun 2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz»²⁵, - deb ta'kidlab o'tganlar.

Mamlakatimizda ham iqtisodiy islohotlar orqali asta-sekin muhim tarmoqlar va sohalar o'rtasidagi mutanosibliklarning shakllantirilishi respublika yalpi ichki

²⁵ Каримов И.А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади: Мамлакатимизни 2013-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза. –Тошкент: Ўзбекистон, 2014. 5-б.

mahsulotining o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, 2004 yildan buyon ushbu ko'rsatkich barqaror ravishda oldingi yilga nisbatan 7 foizdan yuqori darajani saqlab kelmoqda va 2013 yilda 8,0 foizni tashkil etdi. Shuningdek, yalpi ichki mahsulotning nafaqat miqdoran o'sib borishi, balki tarkib jihatidan takomillashib borayotganligini ham ta'kidlash lozim (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. O'zbekistonda YaIM o'sishi tarkibida asosiy tarmoqlarning ulushi²⁶

Diagrammadan ko'rinadiki, 2000 yildagi iqtisodiy o'sish asosan qishloq xo'jaligi tarmog'i hisobiga ta'minlangan bo'lsa, 2012 yilga kelib jami o'sishning katta qismi sanoat tarmoqlari hisobiga to'g'ri kelgan. Bu esa mamlakatimizda ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlashda tarmoqlar o'rtasida barqaror nisbatlarning shakllanib borayotganligidan darak beradi.

Respublikamizda fan-texnika taraqqiyotining yangi yutuqlari asosida iqtisodiyotni erkinlashtirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish dasturi ishlab chiqilgan hamda izchil amalga oshirib borilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash korxonalarning asosiy kapitalini ommaviy ravishda yangilashga yo'naltirilib, bu jarayon moliyalashtirishning qo'shimcha, ahamiyatli

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: «Хаёт нашр» МЧЖ, 2013. 33-б.

va ishonchli manbalarini taqazo etadi. Bu eng avvalo jadallashtirilgan amortizatsiya hamda aholi jamg'armasining milliy daromaddagi ulushining oshirilishi hisobiga ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishning ichki manbalarini safarbar etilishini, shuningdek, xorijiy kapital va yangi zamonaviy texnologiyalarning jalb etilishi, qo'shma korxonalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratib berish siyosatining davom ettirilishini anglatadi.

2.2.1-jadval

O'zbekistonda sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik²⁷

Yil	Sanoat mahsuloti, mlrd. so'm	Sanoat mahsuloti-ning o'sish sur'ati, oldingi yilga nisbatan, %	Sanoat mahsuloti-ning o'sish sur'ati, 2012 yilda tegishli yillarga nisbatan, marta	Qishloq xo'jalik mahsuloti, mlrd. so'm	Qishloq xo'jalik mahsulotining o'sish sur'ati, oldingi yilga nisbatan, %	Qishloq xo'jalik mahsulotining o'sish sur'ati, 2012 yilda boshqa yillarga nisbatan, marta	Sanoat mahsuloti va qishloq xo'jalik mahsuloti o'rtasidagi nisbat
2003	6127,5	136,3	8,3	4083,3	125,4	6,0	1:0,67
2004	8123,2	132,6	6,3	4615,8	113,0	5,3	1:0,57
2005	11028,6	135,8	4,6	5978,3	129,5	4,1	1:0,54
2006	14640,3	132,7	3,5	7538,8	126,1	3,2	1:0,51
2007	18447,6	126,0	2,8	9304,9	123,4	2,6	1:0,50
2008	23848,0	129,3	2,1	11310,7	121,6	2,2	1:0,47
2009	28387,3	119,0	1,8	13628,6	120,5	1,8	1:0,48
2010	34499,1	121,5	1,5	16774,7	123,1	1,5	1:0,49
2011	42158,8	122,2	1,2	21422,3	127,7	1,1	1:0,51
2012	51059,3	121,1	1,0	24370,3	113,8	1,0	1:0,48

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy siyosatning to'g'ri ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari sezilarli darajada rivojlanmoqda. Industrial rivojlangan mamlakatlar tomonidan olib borilgan tarkibiy siyosat tajribalarini hisobga olgan holda, respublikamiz hukumati tomonidan yaqin kelajakda iqtisodiyotning asosiy lokomotiviga aylanishi

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: «Ҳаёт нашр» МЧЖ, 2013. 29-б.

lozim bo'lgan neft-gaz, elektrotexnika, aviatsiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, avtomobilsozlik sanoatlari ustuvor tarmoqlar sifatida belgilab berildi.

Bunday barqaror o'sishga erishishda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklardan qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi mutanosiblik muhim o'ringa ega hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligi sanoat mahsulotlarining asosiy xom ashyo bazasi xisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari mahsulotlari yillar davomida o'sib bormoqda. Lekin ularning o'sish darajalaridagi farqlar natijasida ikki tarmoq o'rtasida tafovutlar paydo bo'lmoqda.

Jadvaldan ko'rinadiki, 2012 yilda sanoat mahsuloti 2003 yilga nisbatan 8,3 marta, qishloq xo'jalik mahsuloti esa 6 marta o'sgan. Agar 2003 yilda sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi nisbat 1:0,67 ni tashkil etgan bo'lsa, 2007 yilda 1:0,50, 2012 yilda 1:0,48 ni tashkil etgan.

Bunday o'sishlar natijasida sanoat va qishloq xo'jaligida ishlaydigan 1 foiz bandlarga to'g'ri keladigan YaIM ulushidagi farq kattalashib bormoqda.

2.2.2-jadval

Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan ishchi kuchi va YaIM o'rtasidagi mutanosiblik holati²⁸

Yillar	Sanoat			Qishloq xo'jaligi		
	Band bo'lganlar ulushi	YaIM ulushi	1 foiz band ishchi kuchiga to'g'ri keladigan YaIM ulushi	Band bo'lganlar ulushi	YaIM ulushi	1 foiz band ishchi kuchiga to'g'ri keladigan YaIM ulushi
2002	12,7	14,5	1,14	32,6	30,1	0,92
2003	12,8	15,8	1,23	31,9	28,4	0,89
2004	13,0	17,5	1,35	30,7	26,4	0,86
2005	13,2	21,1	1,60	29,1	26,3	0,90
2006	13,4	21,8	1,63	28,1	25,1	0,89
2007	13,5	21,0	1,78	27,9	23,0	0,78
2008	13,5	23,0	1,70	27,5	18,9	0,69
2009	13,4	23,6	1,76	26,7	18,2	0,68
2010	13,2	23,9	1,81	25,2	17,5	0,69
2011	13,1	24,1	1,84	27,2	17,6	0,64
2012	13,0	24,0	1,85	27,2	17,5	0,64

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: «Хаёт нашр» МЧЖ, 2013. 33, 62-63- б.

Yaratilayotgan YaIMni sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha ulushi hamda ularning band bo'lganlarga to'g'ri keladigan ulushini o'rganadigan bo'lsak, o'ziga xos nomutanosiblikni ko'rishimiz mumkin(2.2.2-jadval). 2.2.2-jadvaldagi ma'lumotlarni tahlili asosida aytishimiz mumkinki, 2012 yilda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 13 foizi sanoatga, 27,2 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Band bo'lganlarning ulushi sanoatda 2012 yilda 2002 yilga nisbatan ortib borgan bo'lsa, qishloq xo'jaligida esa, aksincha, kamayib borgan. Yana bir e'tiborli jihati, bir foiz band bo'lgan ishchi kuchiga to'g'ri keladigan YaIM ulushi sanoatda 2002 yildagi 1,14 foizdan 2012 yilda 1,85 foizga ortib borgan bo'lsa, qishloq xo'jaligida esa bu ko'rsatkich mos ravishda 0,92 foizdan 0,64 foizgacha kamayib kelgan. Bu esa sanoat va qishloq xo'jaligida band bo'lganlar o'rtasida YaIM yaratishda o'ziga xos nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ekinlari uchun zarur bo'lgan mineral o'g'itlar hajmi bilan ularni ishlab chiqarish hajmi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud (2.2.3-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan yillar davomida mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi jami ekin maydonlari hamda ularga muvofiq ravishda mineral o'g'itlarning zarur hajmi 0,5 foizga qisqargan. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi ham oldingi darajada qolmasdan, deyarli 1,34 marotaba ortgan bo'lsada, mamlakatimizda mineral o'g'itlarning ularga bo'lgan ehtiyojdan kam ishlab chiqarilishi holati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jalik texnikalari va mineral o'g'itlarining kerakli miqdorda yetkazib berilmasligining asosiy sabablaridan biri – ularning mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik hisoblanadi (2.2.4-jadval).

Boshqacha qilib aytganda, qishloq xo'jaligi texnikalar va mineral o'g'itlar bilan ta'minlanish darajasi zamon talabidan orqada qoldi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov, «Chopiq traktorlarining 55 foizdan ortig'i va yer haydaydigan traktorlarning 46 foizi 15 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatilayotgani, boshqacha aytganda, ular belgilangan foydalanish muddatini

2.2.3-jadval

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mineral o'g'itlar hamda ularni ishlab chiqarish hajmlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, (ming tonna)²⁹

	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Jami ekin maydoni, ming gektar	4042,7	4049,0	4057,2	4064,2	4068,6	4071,2	4073,1	4071,0	4064,7	4062,5
Mineral o'g'itlarning zarur hajmi	1435,2	1437,4	1440,3	1442,8	1444,4	1445,3	1446,0	1445,2	1443,0	1442,2
shu jumladan:										
azotli o'g'itlar	870,1	871,5	873,3	874,8	875,7	876,3	876,7	876,2	874,9	874,4
fosfatli o'g'itlar	565,0	565,9	567,0	568,0	568,6	569,0	569,3	569,0	568,1	567,8
Ishlab chiqarilgan mineral o'g'itlar	816,9	875,7	866,3	940,6	1024,1	1065,0	1073,2	1104,6	1063,6	1096,1
shu jumladan:										
azotli o'g'itlar	703,2	736,1	765,1	812,1	874,9	916,6	919,7	955,8	924,2	943,5
fosfatli o'g'itlar	113,7	139,6	101,2	128,5	149,2	148,4	153,5	148,8	139,4	152,6
Ehtiyojdan ortiqcha (+) yoki kam (-) ishlab chiqarish	-618,2	-561,7	-574,0	-502,2	-420,3	-380,3	-372,8	-340,6	-379,4	-346,1
shu jumladan:										
azotli o'g'itlar	-166,9	-135,4	-108,2	-62,7	-0,8	40,3	43,0	79,6	49,3	69,1
fosfatli o'g'itlar	-451,3	-426,3	-465,8	-439,5	-419,4	-420,6	-415,8	-420,2	-428,7	-415,2

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами».- Т.: «Хаёт нашр» МЧЖ, 2013. 215, 221-b.

allaqachon o‘tab bo‘lgani, quvvati, ish unumi va yoqilg‘i iste‘mol qilish bo‘yicha zamonaviy standartlarga javob bermaydigan eski texnikalar ekani tashvish uyg‘otmasdan qolmaydi»³⁰, deb ta’kidlagan.

2.2.4-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi (yillik o‘rtacha foiz hisobida)³¹

	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Traktorlar	22,4	23,9	23,9	23,9	19,6	20,3	22,8	20,9	14,4	16,3
Kultivatorlar	18,8	24,12	26,0	25,9	25,2	53,2	61,2	34,7	8,8	9,8
Seyalkalar	5,2	95,1	53,5	37,4	39,5	68,4	23,2	19,1	49,3	94,0
Mineral o‘g‘itlar	49,1	57,7	64,6	75,0	84,2	83,8	85,1	83,9	82,7	91,9

2.2.4-jadvaldan ko‘rinadiki, 2010 yilda ishlab chiqarish quvvatlaridan yillik o‘rtacha foydalanishi darajasi traktorlar bo‘yicha 20,9%, kultivatorlar – 34,7%, seyalkalar – 19,1%, mineral o‘g‘itlar – 83,9% ni tashkil etgan. Ishlab chiqarishning mavjud quvvatlaridan foydalanishning bunday darajasi bilan ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish mumkin emasligi tushunarli holdir.

Ayni paytda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘z vaqtida sotilishi va qo‘shimcha daromad olinishini ta‘minlashning muhim yo‘nalishi – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘z vaqtida sotilishi;
- ularning omborlarda turib qolib, sifatining buzilishi va nobud bo‘lishining oldini olish;
- mahsulotlarni omborlarda saqlash xarajatlarining qisqarishi;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlariga talabning oshishi natijasida narx hamda tegishli ravishda rentabellikning yuqori darajasini ta‘minlanishi;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tayyor sanoat mahsulotiga aylanishi bilan ulardagi qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi va h.k.

³⁰ Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. –Т.: Ўзбекистон, 2011. –Б.28.

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: “Хаёт нашр” МЧЖ, 2013. 205-б.

Biroq, bunday imkoniyatlarni qo‘lga kiritish uchun qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlash sanoati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash zarur. Chunki, qator jiddiy chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganiga qaramay, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ayniqsa, pilla, jun, teri, paxta va boshqalarni yetishtirish va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish o‘rtasida nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Jumladan, paxta xom ashyosining 34%, mevalarning 17%, sabzavotlarning 12%, poliz ekinlarining 7%, uzumning 25%, terining 28%, junning 17%, go‘shining 27%, sutning 7% sanoatda qayta ishlanmoqda xolos³². Afsuski, bugungi kunda qayta ishlash sanoat korxonalarini tashkil etish jarayoni yetarli darajada bormayapti. Aksincha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi mavjud quvvatlarning yillik o‘rtacha foydalanishi ham talab darajasida emas (2.2.5-jadval).

2.2.5-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari quvvatlarning yillik o‘rtacha foydalanilishi (foiz hisobida)³³

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2012 yilda 2003 yilga nisbatan o‘zgarishi
Paxta tolasi	52,2	54,6	67,5	67,0	66,5	75,4	70,8	77,2	76,6	69,4	+27,2
Tayyor ip gazlamalar	57,6	51,5	40,5	36,1	37,0	62,7	65,5	76,1	50,2	60,1	+2,5
Xom ipak iplar	37,9	49,0	43,9	61,0	54,2	59,9	55,0	59,9	47,8	23,0	-14,9
Tayyor ipak gazlamalar	50,7	48,2	31,1	46,4	48,5	29,4	21,2	59,0	54,3	100	+49,3
Un	31,9	53,5	47,1	49,7	53,2	51,1	47,0	31,4	54,5	49,3	+17,4
Mevasabzavo t konservalari	53,9	40,2	38,1	53,9	43,9	54,0	36,5	57,2	24,3	39,7	-14,2
Uzum vinosi	51,3	37,7	43,0	46,2	51,0	58,8	49,1	61,0	56,7	67,8	+17,6
Xo‘jalik sovuni	39,6	36,4	42,4	48,4	35,2	44,1	54,5	45,2	44,6	38,2	+4,5

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarning aksariyati mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq

³² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Т.: Иқтисодиёт, 2009. – Б.79–80.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: “Хаёт нашр” МЧЖ, 2013. 206-б.

foydalanayotganlari yo'q. Bu esa, hali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi yangi korxonalar barpo etmasdan, mavjud quvvatlardan to'liq va samarali foydalanishni amalga oshirish orqali ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik hali yetarli darajada emas. Maqsadimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish ekan, birinchi navbatda unga moddiy-texnika vositalari yetkazib beruvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarning mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlash muhim hisoblanadi.

II-bob bo'yicha xulosalar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlari o'rtasidagi nisbatlarning mutanosibligini ta'minlash lozim bo'ladi.

2. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining kengayishi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va uning kooperatsiyalashuvi oqibatida mehnat unumdorligining o'sib borishi quyidagi muhim natijalarga olib keladi:

Birinchidan, mehnat unumdorligining o'sishi oqibatida ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholining ish haqi, daromadlari ham tez o'sib boradi.

Ikkinchidan, ushbu tarmoqlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar bilan bozor to'yinadi, shuningdek, aholi daromadlarining o'sishi natijasida ularning moddiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlari to'liqqon diriladi.

Uchinchidan, moddiy mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori darajada qondirila borishi oqibatida aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari o'sib boradi. Talabning tarkibiy tuzilishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Turli tuman xizmat turlariga bo'lgan talab o'sib boradi.

3. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushlari kamayib bormoqda. Hozirgi davrga kelib, xizmat ko'rsatish sohalarining

yalpi ichki mahsuloti ulushlari rivojlangan mamlakatlarda 60-75 foizni tashkil qilmoqda.

4. O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish bilan band bo'lganlar tarkibini tahlilidan quyidagilar aniqlandi:

- qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar ulushi yildan yilga kamayib borishi ijobiy tendensiya bo'lib, bu hol ortiqcha, unumsiz ish bilan band bo'lganlarning iqtisodiyotning boshqa sohalariga o'tayotganligidan dalolat beradi;

- hamon qishloq xo'jaligida ortiqcha, unumsiz ish bilan bandlikning mavjudligini ko'rsatmoqda;

- sanoatda ish bilan bandlarning umumiy soni va ulushi o'sib bormoqda. Bu hol ushbu sohaning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushining o'sib borishi bilan bog'liq ravishda sodir bo'lmoqda.

5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'z vaqtida sotilishi va qo'shimcha daromad olinishini ta'minlashning muhim yo'nalishi – qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'z vaqtida sotilishi;

- ularning omborlarda turib qolib, sifatining buzilishi va nobud bo'lishining oldini olish;

- mahsulotlarni omborlarda saqlash xarajatlarining qisqarishi;

- qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabning oshishi natijasida narx hamda tegishli ravishda rentabellikning yuqori darajasini ta'minlanishi;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarining tayyor sanoat mahsulotiga aylanishi bilan ulardagi qo'shilgan qiymat hajmining oshishi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TARMOQLAR O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH YO‘NALISHLARI

3.1. Tarmoqlar o‘rtasida mutanosiblikni ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari

Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyotda dolzarb muammosi sifatida qaralib kelinadi. Ayniqsa, hozirgi paytda bu masala yanada keskin qo‘yilmoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib mamlakatimiz oldida turgan muhim masala – barqaror iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari bilan unga avanslangan resurslar, mablag‘lar yoki qilingan xarajatlar o‘rtasidagi nisbat tushuniladi.

Lekin, turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bosqichlarida jamiyatning shu davrdagi asosiy maqsadidan kelib chiqib, samaradorlikning mazmuni va mezoni o‘zgaradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning bosh mezoni haqida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim olimlar ishlab chiqarish samaradorligining bosh mezoni foyda, boshqa birlari esa yalpi milliy mahsulot, cof mahsulot, uchinchilari milliy daromad, to‘rtinchilari esa qo‘shimcha mahsulot deb ko‘rsatadilar. Biz bu o‘rinda sanab o‘tilgan fikrlarning qaysi biri to‘g‘ri ekanligi haqida batafsil to‘xtolmaymiz, lekin shuni aytish kerakki, ko‘pchilik olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning bosh mezoni olingan foydaning xarajatlarga nisbati, ya'ni rentabellik yoki foydalilik darajasi bilan belgilanadi deb tan olinadi. Haqiqatan ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli iqtisodiyotning har bir bo‘g‘ini ko‘proq foyda olishga intiladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish samaradorligi olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurslar qiymatiga (IX) nisbatining foizdagi ifodasi bilan aniqlanadi va u foyda normasi yoki rentabellik deb ataladi.

$$P' = \frac{\Phi}{ИХ} \times 100\%$$

bu yerda: P' – foyda normasi;
ИХ – iqtisodiy resurs sarflari.

Foyda normasi va rentabellik ikki usulda: olingan foyda miqdorining sarflangan umumiy kapitalga (asosiy va aylanma fondlarga) yoki ishlab chiqarishga sarflangan joriy xarajatlar (tannarx)ga nisbati bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p qirrali masala bo'lib, bu aytilgan birgina asosiy ko'rsatkichda, uni to'la ravishda har tomonlama ifodalab bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini to'la ifodalashda unda qatnashgan omillarning unumdorligini, ulardan samarali foydalanish darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarning samaradorligini aniqlash va tahlil qilish uchun eng avvalo olingan foyda miqdoriga e'tibor beramiz (5.4-jadval).

3.1.1-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari bo'yicha olingan foyda, zarar (-), mlrd. so'm³⁴

	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Foyda - jami	657,7	1032,5	1837,2	1837,4	3202,4	4557,7	6025,7	5956,1	7725,4	7699,8
Shu jumladan:										
Sanoat	354,5	618,2	1246,7	1063,3	2178,6	2969,1	3820,6	3197,8	3631,3	4609,8
Qishloq xo'jaligi	-30,6	-16,4	-48,9	-2,4	23,1	21,1	13,6	43,6	28,5	36,0
Qurilish	30,7	37,5	43,6	61,2	70,8	43,6	67,2	83,5	89,8	112,0
Transport va aloqa	176,6	271,1	451,3	621,8	787,6	1271,6	1847,5	2149,4	3200,0	2069,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	60,6	57,9	40,2	73,7	144,9	242,5	218,1	417,4	717,0	850,3

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2003-2012 yillar davomida butun iqtisodiyotda va ko'pgina tarmoqlarda olingan foyda miqdori asosan oshib

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
Manba: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: «Ўаёт нашр» МЧЖ, 2013. 193-б.

borish tendensiyasiga ega. Faqatgina qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini zarar yoki past foyda bilan yakunlangan.

Qishloq xo'jaligida olingan foyda miqdorining pastligi yoki zarar ko'rishi ko'p jihatdan tarmoqdagi mavjud iqtisodiy resurslardan samarali va tejamli foydalanish hamda turli omillar o'rtasidagi mutanosiblik darajasining pastligi bilan bog'liq.

Olingan foyda miqdorining oshib borishi albatta ijobiy holat bo'lib, ma'lum darajada samaradorlik oshib borishini ifodalaydi. Lekin unda sarflangan kapitalning yoki joriy xarajatlarning xar biridan qanchalik unumli foydalanilganligini bilish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham samaradorlik darajasi foyda normasi ko'rsatkichida aniqroq o'z ifodasini topadi. Bu holatni 3.1.2-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

3.1.2-jadvalda mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida 2003, 2006, 2009 va 2012 yillarda foyda normasi olingan foydaning fondlarga va sotilgan mahsulot tannarxiga (qilingan xarajatlarga) nisbatan foizda aniqlangan. Undan ko'rinib turibdiki, asosiy yillarda xam eng yuqori samaradorlik transport sohasida saqlangan. Bu yerda foyda normasi 2012 yilda fondlarga nisbatan 19,0, tannarxga nisbatan 43,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, mos ravisha 2012 yilda 16,6 va 50,0 foizlarni tashkil etgan.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasida 2009 yilda yuko'ri ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, 2012 yilda nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'lgan. Bu yerda foyda normasi 2009 yilda fondlarga nisbatan 73,7, tannarxga nisbatan 64,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, mos ravisha 2012 yilda 15,4 va 5,7 foizlarni tashkil etgan.

Samaradorlik jihatdan ko'pchilik holarda qishloq xo'jaligi, uy-joy xo'jaligi, kommunal xo'jaliklari, tayyorlov, geologiya, yer osti boyliklarini qidirib topish, geodeziya va gidrometriologiya xizmati sohalari ancha past ko'rsatkichga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari kommunal xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jalik sohalari foyda normasi ko'pchilik holatda xar ikkala ko'rsatkich bo'yicha yoki zarar bilan yoki juda past darajadagi rentabellik bilan yakunlangan.

3.1.2-jadval

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha samaradorlik darajasi (foiz hisobida)³⁵

	Samaradorlik darajasi							
	Fondlarga nisbatan				Sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatan			
	2003	2006	2009	2012	2003	2006	2009	2012
Jami	5,9	8,3	14,4	12,5	8,4	11,1	19,1	15,1
sanoat	6,6	8,1	16,0	15,3	9,1	10,2	20,6	15,0
qishloq xo'jaligi	-2,5	-0,2	1,4	5,9	-3,3	-0,4	2,2	8,4
qurilish	12,2	16,1	3,6	5,4	8,2	10,3	4,2	5,5
transprot	6,3	11,3	19,0	16,6	16,6	24,1	43,5	50,0
aloqa	5,2	12,6	7,5	-27,5	18,1	45,9	21,1	-86,9
geologiya, yer osti boyliklarini qidirib topish, geodeziya va gidrometriologiya xizmati	5,9	5,9	2,6	5,0	9,8	9,2	5,2	8,4
moddiy-texnika ta'minoti va sotish	5,9	-21,6	13,9	41,9	3,3	-6,0	4,2	7,6
tayyorlov	2,1	2,1	0,2	1,7	4,0	3,7	0,5	0,6
savdo va umumovqatlanish	15,3	10,3	16,2	65,5	7,7	4,2	4,8	10,6
aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning noishlab chiqarish turlari	9,5	46,8	73,7	15,4	13,3	42,5	64,2	5,7
uy-joy xo'jaligi	32,7	1,0	3,4	5,5	12,7	1,6	3,2	3,0
kommunal xo'jalik	2,1	-2,1	-5,6	-8,6	3,3	-5,7	-13,9	-19,9

Ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qatoriga mehnat unumdorligi, kapital unumdorligi ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Mehnat unumdorligi deb aniq mehnatning vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi. U ikki xil o'lchamda: a) ishlab chiqarilgan mahsulotning (iste'mol qiymatining) sarflangan mehnat miqdoriga nisbati:

$$MU = M / V$$

bilan yoki sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati:

³⁵ Manbaa: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: «Хаёт нашр» МЧЖ, 2013. 194-б.

$$MU = V/M$$

bilan belgilanadi. Bu yerda:

MU – mehnat unumdorligi;

M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

V – sarflangan ish vaqti (kishi kuni, kishi soati va h.k.).

Demak, mehnat unumdorligi sarflangan jonli mehnatning har bir birligi evaziga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir birligiga sarflangan mehnat miqdori bilan aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda mehnat unumdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda korxonalaridagi mehnat unumdorligi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, mehnat jarayonini tashkil etish, boshqarish, mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va h.k. orqali namoyon bo'ladi. Bu shart-sharoitlarning o'z vaqtida va to'liq ta'minlanishi pirovardida yaratilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmining o'sishiga, ular tannarxining pasayishiga olib keladi.

Mehnati unumdorligi darajasi – jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanishining muhim ko'rsatkichi hamda uning boyligi, moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligining o'lchamlaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasining oshishi ham jonli mehnat, ham o'tgan (buyumlashgan) mehnatning tejashini, ya'ni tovar birligini ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy-zaruriy ish vaqtining pasayishini anglatadi. Bunda tovarning har bir birligida mujassamlashgan jonli mehnatning ulushi kamayadi, o'tgan (buyumlashgan) mehnat ulushi esa ko'payadi. Biroq bu ko'payish shunday hajmlarda amalga oshadiki, tovarda mujassamlashgan mehnatning umumiy miqdori qisqaradi. Boshqacha aytganda, mehnat unumdorligi ish vaqtini tejashni bildiradi.

Mehnati unumdorligining darajasi va o'sish sur'ati ko'plab omillarga, eng avvalo ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligini oshirish ma'lum darajada uning omillari o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo etadi.

Eng avvalo butun iqtisodiyot miqyosida mehnat unumdorligi o‘rtacha darajasining o‘shishiga erishish uchun quyidagi jihatlar bo‘yicha tarmoqlar o‘rtasida mutanosibliklarning ta‘minlanishi zarur bo‘ladi:

- ishchi kuchi bilimi, malakasi va sifatining muayyan kasb, lavozim va ish o‘rni bo‘yicha talab qilinayotgan ko‘rsatkichlarga muvofiqligi;
- mehnat jarayonlarining tegishli zamonaviy texnika va texnologiya vosiatalari bilan ta‘minlanganligi;
- mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv darajasining optimalligi va maqsadga muvofiqligi;
- iqtisodiy resurslardan oqilona va tejimli foydalanish darajasi.

Mehnat unumdorligining aniq darajasi har bir ishlovchi ishchi, ishlangan bir kishi kuni, bir kishi soati hisobiga olingan yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, foyda va boshqa ko‘rsatkichlarda ifodalanadi.

3.1.3-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotida mehnat va kapital unumdorligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi³⁶

Yillar	Yalpi ichki mahsulot, mlrd.so‘m	Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, ming kishi	O‘rtacha yillik mehnat unumdorligi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan), ming so‘m	Asosiy ishlab chiqarish fondlari (yil oxiriga balans qiymatida), mlrd.so‘m	Kapital unumdorligi, so‘m
2003	9844,0	9589,0	1026,6	12685,8	0,78
2004	12261,0	9910,6	1237,2	15102,2	0,81
2005	15923,4	10196,3	1561,7	18545,4	0,86
2006	21124,9	10467,0	2018,2	21917,7	0,96
2007	28190,0	10735,4	2625,9	28566,3	0,99
2008	38969,8	11035,4	3531,3	35494,9	1,10
2009	49375,6	11328,1	4247,8	46834,8	1,05
2010	62388,3	11628,4	5365,1	58019,9	1,08
2011	78764,2	11919,1	6608,2	70940,5	1,11
2012	96589,8	12223,8	7901,8	87323,1	1,11

Mamlakatimiz iqtisodiyotida mehnat unumdorligi darajasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillar ichida (2003-2012 yillar) bu ko‘rsatkich muttasil o‘shib

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manba: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: “Ўаёт нашр” МЧЖ, 2013. 28, 61-б.

borish tendensiyasiga ega (3.1.3-jadval). Agar 2003 yilda har bir ishlagan ishchiga to'g'ri keladigan YaIM 1026,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 7901,8 ming so'mni tashkil etib 7,7 barobar oshgan. Bu juda katta ijobiy o'zgarish bo'lib, mehnat unumdorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan unumli foydalanilganligini ifodalaydi.

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda kapital unumdorligi ko'rsatkichidan ham foydalanilishi, uni ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning har bir birligi evaziga olingan mahsulot, daromad yoki foyda miqdori bilan aniqlanishi ko'rsatilgan.

Ya'ni:

$$KU=M/K; \quad KU=MD/K; \quad KU=F/K.$$

bu yerda:

KU – kapital unumdorligi;

K – ishlab chiqarishda qatnashgan kapital miqdori;

M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

MD – yalpi daromad;

F – foyda.

Kapital unumdorligi tahlili shuni ko'rsatadiki, (3.1.3-jadval) har bir so'm sarflangan kapital hisobiga olingan YaIM 2003 yilda 0,78 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, dan 2012 yilda 1,11 so'mga yetgan.

Samaradorlikni aniqlashda bu ko'rsatkichlardan tashqari mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, energiya sig'imi degan ko'rsatkichlar ham qo'llanilib, ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan, yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat, energiya va moddiy ashyolar miqdorini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun unga ta'sir qiladigan omillarni ham bilish zarurdir. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

- 1) fan-texnika taraqqiyotni tezlashtirish va uning natijalarini zudlik bilan ishlab chiqarishda qo'llash;
- 2) ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash;
- 3) iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini va uning tashkiliy bo'g'inlarini o'zgartirish;
- 4) ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ularning faolligini oshirish;
- 5) mavjud tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish, yangi, arzon, sifatli xom ashyo va energiya turlarini, ekinlarning yangi hosildor navlarini, chorva mollarining mahsuldor zotlarini topib ishlab chiqarishga joriy qilish;
- 6) kishilarning bilim saviyasini, malakasini oshirish, yetuk ishchi va mutaxassislarni tayyorlash;
- 7) ishlab chiqarishda va xizmat ko'rsatishda qatnashgan omillarning bir-biriga mutanosibligi va muvozanatligi.

Bular ichida mutanosiblik va muvozanatlik omili hozirgi kunda respublikamiz uchun dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nomutanosibliklar ishlab chiqarish natijalarining past bo'lishiga yoki yo'qotishlar ro'y berishiga olib keladi. Bunga yaqqol misol tariqasida mamlakatimizdagi paxta xom ashyosini yetishtirish hamda uni sanoat korxonalarida qayta ishlashning turli darajalari o'rtasidagi nomutanosiblikni keltirish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston jahonda paxta yetishtirish bo'yicha oltinchi o'rinni va uning eksporti bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Har yili O'zbekistonda

va rekonstruksiya qilish bo'yicha jami 9 ta loyiha amalga oshirilib, 2210 ta yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan.

Bu borada, 4 ta yangi ob'ektlarni qurish loyihalari rejalashtirilgan. Shu jumladan, Toshkent viloyatidagi "Textile Technologies Group" MChJ xorijiy korxonasida loyiha quvvati 6 ming tonna paxtadan yigirilgan ip, 7,5 mln.kv.m. ip gazlama, 5 mln.donaga teng bo'lgan tayèr mahsulotlar ishlab chiqarish tekstil majmuasi, shuningdek Jizzax shahridagi "A.Sattorov" MChJ negizida loyiha quvvati 6 ming tonna paxtadan yigirilgan ip va 4 ming tonnaga teng bo'lgan trikotaj matolar yigiruv va to'quvchilik bo'yicha ishlab chiqarish, Xorazm viloyatidagi "Qatqal'ateks" MChJda loyiha quvvati 12 mln juft paypoq va 780 ming donaga teng bo'lgan trikotaj matolari ishlab chiqarish, Andijon viloyatidagi "Saxovotteks" MChJda loyiha quvvati 6,3 ming tonnaga teng bo'lgan yigirilgan ip ishlab chiqarish tashkil etiladi"³⁹.

Keyingi yillarda paxta tolasini mamlakatimiz ichida qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Paxta tolasi ahamiyatli qismining yengil sanoat korxonalarida qayta ishlashga yo'naltirilishi natijasida uning eksportdagi solishtirma salmog'i yildan-yilga pasayib bormoqda (3.1.5-jadval).

Bu holatni Prezidentimiz I.Karimov tashqi savdo tarkibidagi chuqur ijobiy o'zgarishlar ifodasi sifatida e'tirof etadilar: "Keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2008 yilda umumiy eksport hajmida xom ashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ziyodni tashkil etdi. Ayni paytda O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xom ashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003 yildagi 20 foizdan 2008 yilda 12 foizga tushdi"⁴⁰. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda yanada pasayib, 2012 yilda 9,3 foizni tashkil etdi.

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йилнинг асосий якунлари ва 2013 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги "Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш" мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: "O'qituvchi" НМИУ. - 2013. –Б.260.

⁴⁰ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 16-17-б.

3.1.5-jadval

O'zbekiston eksportining umumiy qiymati va unda paxta tolasining ulushi⁴¹

Yil	Eksportning umumiy qiymati, mln. AQSh doll.	Shu jumladan, paxta tolasini eksporti, mln. AQSh doll.	Solishtirma salmog'i, foizda
2003	3725,0	739,1	19,8
2004	4853,0	876,1	18,1
2005	5408,8	1033,3	19,1
2006	6389,8	1097,0	17,2
2007	8991,5	1127,4	12,5
2008	11493,3	1066,8	9,3
2009	11771,3	1012,7	8,6
2010	13023,4	1572,7	12,1
2011	15021,3	1347,9	9,0
2012	13599,6	1259,7	9,3

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, «To'qimachilik sanoatida eksportbop raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga yo'naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo'lgan yangi, zamonaviy to'qimachilik komplekslarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur»⁴², degan edilar. Bu esa, paxta tolasini o'zimizda qayta ishlash hajmini 2 barobardan ko'proqqa, kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini 3 barobar⁴³ oshirish imkonini beradi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda paxta tolasini qayta ishlab, undan turli darajadagi tayyor mahsulotlar olishning mavjud imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Buni birgina paxta tolasini va undan ishlab chiqarilgan ip-kalava mahsuloti o'rtasidagi nisbatdan ham kuzatish mumkin (3.1.6-jadval).

Jadvaldagi tahlil shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda paxta tolasidan ip-kalava ishlab chiqarish jonlanib, 2012 yilda uning salmog'i 18,5 foizni tashkil qilgan hamda paxta tolasini bilan ip-kalava ishlab chiqarish o'rtasidagi nisbatning 1:0,19 ga

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manba: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами». -Т.: «Ҳаёт нашр» МЧЖ, 2013. 323 -б.

⁴² Каримов И. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. –Т.: Ўзбекистон, 2011. –Б.23.

⁴³ Каримов И. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. –Т.: Ўзбекистон, 2011. –Б.24.

yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Holbuki, bizga ma’lum bo‘lishicha 1 kg paxta tolasidan 0,85 kg ga qadar ip-gazlama chiqishi mumkinligi e’tiborga olinsa, paxta tolasini va undan ishlab chiqarilgan ip-kalava mahsuloti o‘rtasidagi nisbat 1:0,85 ga qadar yetishi mumkin. Paxta tolasining ip-kalavaga aylantirilmasligi esa undan keyingi turdagi tayyor mahsulotlar (masalan, gazlama, trikotaj mahsulotlari va h.k.)ning ham ishlab chiqarilishini cheklab qo‘yishni anglatadi.

3.1.6-jadval

O‘zbekistonda tayyorlangan paxta tolasini va undan ishlab chiqarilgan ip-kalava mahsuloti o‘rtasidagi nisbat⁴⁴

Yillar	Paxta tolasini, ming tonna	Gazlama to‘qiydigan ip-kalava		
		miqdori, ming tonna	paxta tolasini hajmidagi ulushi, %	paxta tolasini bilan ip-kalava o‘rtasidagi nisbat
2003	943,9	168,6	17,9	1:0,18
2004	977,0	171,4	17,5	1:0,18
2005	1184,2	170,8	14,4	1:0,14
2006	1171,2	164,6	14,1	1:0,14
2007	1124,8	179,6	16,0	1:0,16
2008	1174,0	160,1	13,6	1:0,14
2009	1049,5	173,9	16,6	1:0,17
2010	1118,5	225,6	20,2	1:0,20
2011	1102,1	171,8	15,6	1:0,16
2012	1077,8	199,3	18,5	1:0,19

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda paxta xom ashyosini yetishtirish hamda uni sanoat korxonalarida qayta ishlashning turli darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning sezilarli ravishda oshishiga olib kelishi mumkin. Chunki, milliy sanoat korxonalarida paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash natijasida qo‘shilgan qiymatning ahamiyatli darajada oshib borishi pirovardida tarmoqdagi va binobarin mamlakatimizdagi daromadning o‘shishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida milliy iqtisodiyot samaradorligini ta’minlashda ichki va tashqi talab o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, bunda ichki talabni rag‘batlantirish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
Manba: «Ўзбекистон Республикаси йиллик statistik тўплами». -Т.: “Ўаёт нашр” МЧЖ, 2013. 220 -б.

hisoblanadi. Chunki, ishlab chiqarilgan tovarlarga talab yetarli bo'lmasa uni sotish va, binobarin, xarajatlarni qoplab, ma'lum foyda olish mumkin bo'lmay qoladi. Global darajadagi yalpi talabning qisqarishi ham tashqi ham ichki bozorlardagi muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturida asosiy yo'nalishlardan biri – bu mahsulotlarimizga tashqi talab qisqarayotgan bir sharoitda ichki talabni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Mamlakatimizda ichki talabni qo'llab-quvvatlash orqali tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur. Bulardan asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- ularni imtiyozli kreditlar ajratish orqali qo'llab-quvvatlash;
- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga byudjet-soliq imtiyozlarini berish;
- eksport salohiyatini rivojlantirish hamda mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotiga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda asosiy e'tibor eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilmoqda. Chunki, hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqarishni o'ylamagan mamlakat uzoq muddatli taraqqiyotga erisha olmaydi.

Eksportni rivojlantirish esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishni taqozo etadi. Bunga faqat mahsulot tannarxini pasaytirish orqali erishish mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida samaradorlikni oshirish maqsadida tarmoqlar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash, ichki talabni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni

ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yuksaltirish hamda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, tobora keskinlashib borayotgan jahon moliviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri oqibatlarini yanada yumshatishda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish iqtisodiy salohiyatimizni mustahkamlashga imkon yaratadi.

3.2. Iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlashda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni rivojlantirish yo'nalishi

Iqtisodiy samaradorlikka erishish ko'p jihatdan resurslardan tejamli foydalanish bilan bog'liq. Ayni paytda tejamkorlik samaradorlikdan mazmunan farq qilib, o'zining tamoyillari va amal qilish xususiyatlariga ega.

Mamlakatimizda ham bugungi kunda iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, tejamkorlik masalasi Prezidentimiz I.A.Karimovning bir qator asarlari va ma'ruzalarida ko'tarilib, uni ta'minlashning muhim yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

2006 yil 10 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzada energiya resurslari, birinchi galda, ko'p miqdorda energiya sarf etadigan tarmoqlar – kimyo, rangli metallurgiya, elektr energetikasi va boshqa sohalarda qattiq tejamkorlikni ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan. Prezidentimiz bugungi kunda energetika masalasining dolzarb ahamiyat kasb etishiga to'xtalib, bu masalada O'zbekiston o'zini o'zi ta'minlaydigan mamlakat hisoblanishini, biroq bu mazkur resurslarga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lish huquqini bermasligini ta'kidladilar. Buning uchun esa energiya resurslaridan foydalanishda kelgusi avlod to'g'risida ham qayg'urishni, undan tejamli foydalanish hisobiga mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni ta'minlashga harakat qilish zarurligini uqtirdilar.⁴⁵

«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarda Prezidentimiz Inqirozga qarshi

⁴⁵ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. –Т.: «Ўзбекистон», 2006. –Б.196.

choralar dasturining konkret bo‘limlari – belgilangan kompleks chora-tadbirlar qatorida «...qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish»⁴⁶ vazifasini ham alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Bundan ko‘rinadiki, hozirgi sharoitda iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish hamda barqaror o‘sinh sur’atlarini ta’minlash mavjud resurslardan oqilona va tejamli foydalanishni taqozo etadi. O‘z navbatida, resurslardan tejamli foydalanishni ta’minlash iqtisodiyotning tarmoqlarining mutanosib rivojlanishiga bog‘liq.

Iqtisodiyotdagi tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosiblikning tejamkorlik bilan o‘zaro bog‘liqligi ikki jihatga ega. Birinchidan, tejamkorlikni iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida mutanosiblikni yo‘lga qo‘yish, ta’minlash uchun taqozo etiladi. Ikkinchidan iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblikning o‘rnatilishi natijasida tejamkorlikning kuchayishiga olib keladi.

Haqiqatan ham, iqtisodiyot va uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar ob’ektiv tarzda amalga oshar ekan, muayyan qonuniyatlarga amal qiladi. Iqtisodiy muvozanatlikni taqozo etuvchi omillar o‘z harakatida iqtisodiy mutanosiblik omillari bilan uyg‘unlashadi. Iqtisodiy muvozanatlik yangidan-yangi mutanosibliklarni keltirib chiqaradi, mutanosibliklarning o‘zgarishi esa o‘z navbatida muvozanatlikning yangi darajasi tomon harakat qildiradi.

Shu o‘rinda, masalaning muhim tomoni – tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosiblikning tejamkorlikni ta’minlash, ya’ni tejamli xo‘jalik yuritish vositasi ekanligidir. Chunki tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosiblik iqtisodiyotning barqarorligiga asos yaratish orqali tejamkorlikni rag‘batlantiradi. Masalan, muayyan tovar bozoridagi talab va taklifning muvozanati narxlar va tovarlar miqdorining nisbatan barqarorligiga olib keladi. Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchi o‘zining foydasini maksimallashtirish uchun mahsulot tannarxini

⁴⁶ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шaroitida уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 34-б.


pasaytirishga, ya'ni birinchi navbatda iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishga harakat qiladi.

Hozirgi zamon taraqqiyoti, ayniqsa, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ishchi kuchiga bo'lgan talabning taklifdan sezilarli darajada ortda qolishi ishsizlik muammosining keskinlashuvini ko'rsatmoqda.

Haqiqatan ham hozirda jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi natijasida retsessiya va iqtisodiy pasayish, investitsion faollik ko'lamining cheklanib borishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo'lmoqda.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (3.2.1-rasm).

Jaxonning yetakchi mamlakatlari uchun eng og'ir muammo - bu ishsizlikdir. Jaxon inkirozi boshlanishi bilan zamonaviy iktisodiyotda bandlar va ishsizlar o'rtasidagi yangi nisbatning vujudga kelganligi xamda yukori darajadagi ishsizlik uning alomatiga aylanganligi to'g'risidagi xulosa barcha uchun ma'lum xakikatga aylandi. Aslida, bu boradagi axvol bir xilda emas. Bir tomondan, ishsizlik dastlabki inkiroz xolatlaridan keyin juda sekinlik bilan pasaymokda. Boshka tomondan, jaxonning kuplab mamlakatlari - bu Germaniya, Yaponiya, Markaziy va Shimoliy yevropa mamlakatlarida ishsizlik darajasi inkirozdan oldingi darajasiga kaytdi. AQShda ishsizlik darajasi juda sekinlik bilan, pasayib bormokda va xozirda 7,7% ga kadar tushdi. Albatta, AQSh iktisodiyoti uchun "me'yordagi" xisoblangan 4-6% darajaga tushishgacha xali uzak.



3.2.1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari⁴⁷.

Bu keltirilgan misollarning barchasi ishchi kuchi bozoridagi nomuvofiqlik natijasida ko‘plab ishchi kuchidan foydalanilmay qolayotganligini va davlatning tartibga solish funksiyasidan foydalanishning o‘ta zaruriyatga aylanganligini ko‘rsatadi.

Agar, ishchi kuchi bozorida mutanosiblik ta'minlanmas ekan, u holda ishchi kuchidan tejamli foydalanish to‘g‘risida umuman so‘z ham borishi mumkin emas. Ayniqsa, ishchi kuchidan tejamli foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida belgilangan ilmiy me'yorlarga muvofiqligi muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda ishchi kuchi resurslaridan samarali va tejamli foydalanish darajasiga oid tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, hozirda qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan ishchi kuchi belgilangan ilmiy me'yorlardan bir necha marta yuqori bo‘lmoqda (3.2.1-jadval).

Jadvaldan ko‘rinadiki, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida 1 ga yer maydonida 0,38 birlik ishchi kuchining band bo‘lishi ilmiy me'yor sifatida belgilangan. Har yillik ekin maydoni turli sabablarga ko‘ra (masalan, almashlab ekish, yerlarda agrotexnik tadbirlar o‘tkazish va boshqalar) o‘zgarib turishi natijasida qishloq xo‘jaligida ishlash uchun me'yor bo‘yicha zarur bo‘lgan ishchi kuchi soni ham

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йилнингасосий якунлари ва 2013 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: “О‘qituvchi” НМИУ. - 2013. –Б.13.

o'zgarib turadi. Bu borada respublikamizda 2003 yilda 1536 ming kishi talab etilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib 1544 ming kishiga qadar ortgan.

3.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchi soni bilan ilmiy asoslangan me'yorlar o'rtasidagi nomutanosiblik⁴⁸

Yillar	1 ga yer maydoniga belgilangan ishchi kuchi soni	Ekin maydoni, ming ga	Me'yor bo'yicha zarur bo'lgan ishchi kuchi soni, ming kishi	Haqiqatda bandlar soni, ming kishi	Me'yordan ortiqcha ishchi kuchi soni, ming kishi	Ishchi kuchi sonining me'yordan ortib ketishi, marta
2003	0,38	4042,7	1536	3063	1527	1,99
2004	0,38	4049,0	1539	3043	1504	1,98
2005	0,38	4057,2	1542	2967	1425	1,92
2006	0,38	4064,2	1544	2936	1392	1,90
2007	0,38	4068,6	1546	2998	1452	1,94
2008	0,38	4071,2	1547	3036	1489	1,96
2009	0,38	4073,1	1548	2898	1350	1,87
2010	0,38	4071,0	1547	3127	1580	2,02
2011	0,38	4064,7	1545	3239	1694	2,10
2012	0,38	4062,5	1544	3261	1717	2,11

Tahlil davrida respublikamizning qishloq xo'jaligida amalda band bo'lgan ishchi kuchi sonining dastlab kamayib borib, keyinchalik ortib borishi tendensiyasi kuzatiladi. Bu holat, dastlab jamoa va davlat xo'jaliklarining shirkat xo'jaliklariga, keyin esa zarar ko'rib ishlovchi shirkat xo'jaliklarining dehqon va fermer xo'jaliklariga aylantirilishi natijasida ish o'rinlarining optimallasuvi bilan izohlanadi. 2003-2012 yillar davomida haqiqatda bandlar soni 3063 ming kishidan 3127 ming kishiga qadar, ya'ni 2,1 foizga ortgan.

Shunga qaramay, xo'jaliklardagi ishchi kuchining belgilangan ilmiy me'yordan ortiqchaligi sezilarli darajada saqlanib kelmoqda. Agar bu ortiqchalik 2003 yilda 1,99 martani tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 2,11 martani tashkil etgan. Demak, bundan xulosa chiqarish mumkinki, qishloq xo'jaligida band

⁴⁸ Жадвал муаллиф томонидан тузилган. Манба: Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами 2008 / Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Т., 2009; Ўзбекистон Республикасининг статистик ахборотномаси 2010 / Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Т., 2011.

bo'lgan ishchi kuchi soni bilan ilmiy asoslangan me'yorlar o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi ishchi kuchi resurslaridan tejamli foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida ishchi kuchi resurslaridan samarali va tejamli foydalanishni ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchi resurslarini o'zining ixtisosligi, malakasi va sifati bo'yicha mavjud ish o'rinlariga muvofiqligini ta'minlash;

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi darajasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ishchi kuchining optimal me'yorini aniqlash va band ishchi kuchi sonini unga muvofiqlashtirish;

- ortiqcha ishchi kuchi resurslarini qishloqda qayta ishlash sanoati, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma korxonalarini barpo etish orqali band qilish va h.k.

Umuman olganda, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida dastlabki pallada tejamli xo'jalik yuritish mexanizmlarining davlat tomonidan shakllantirilishi, tartibga solinishi va rag'batlantirib turilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, tejamkorlikning ob'ektiv iqtisodiy munosabat sifatidagi tabiiy shakllanish va amal qilish jarayoni uzoq muddat taqozo etib, bu davrda juda ko'plab tabiiy resurs va moddiy boyliklar xo'jasizlarcha ishlatilishi natijasida behuda sarf bo'lib ketishi mumkin. Ayniqsa, ko'plab mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning tashkil topishi va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiy resurslardan foydalanishda ilmiy me'yorlarga amal qilmaslik, akariyat hollarda ular to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmaslik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Buning oqibatida ko'plab yangidan ish boshlagan tadbirkorlar o'z xo'jalik yuritish faoliyatlarining me'yordagi samaradorligini ta'minlay olmay, bankrotlikka uchramoqdalar. Bu esa, umumiy holda jamiyatimiz uchun sezilarli darajadagi yo'qotishlarga olib kelmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish sur'atlarining yanada yuqori bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga texnika vositalaridan tejamli foydalanish katta ta'sir ko'rsatib, bu o'rinda ham mazkur jarayonning turli tomonlari o'rtasidagi mutanosiblik muhim o'rin tutadi. Chunki, qishloq xo'jaligi texnika vositalarining soni ishlov beriladigan yer maydoni, unda ishtirok etuvchi ishchilar soni, bajariladigan texnik ishlar turi va hajmi hamda boshqa bir qator jarayonlarga mutanosib ravishda aniqlanishi lozim. Ushbu jarayonlar esa texnika vositalariga bo'lgan optimal zaruratni ifodalovchi ilmiy me'yorlarda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, texnika vositalaridan tejamli foydalanish eng avvalo ilmiy asosda ishlab chiqilgan me'yorlarga muvofiqlik orqali baholanadi.

Respublikadagi mavjud qishloq xo'jaligi texnika vositalarining ilmiy me'yorlarga mosligi ta'minlanmagan. Xususan, 2008 va 2010 yillarda yer xaydov traktorlarining soni ilmiy me'yorlardan belgilangan sonidan tegishli ravishda 25645 va 28466 dona kam bo'lgan. 2008 yilda mavjud yer xaydov traktorlarining me'yor bo'yicha zarur miqdoridagi ulushi 36 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil qilgan.

Qishloq xo'jaligi texnikalarini yangilash bo'yicha olib borilayotgan maqsadli tadbirlar natijasida keyingi 6 yil ichida jami 13896 dona traktorlar, 3960 dona traktor tirkamalari, 3603 dona kultivatorlar, 1076 dona don o'rish kombaynlari va boshqa yuqori unumli texnikalar xarid qilingan.⁴⁹

Umuman olganda, iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni yanada kuchaytirishning muhim yo'llari sifatida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiy resurslarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanish tejamkorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va ularga maqsadga yo'naltirilgan holda yondashish;

- iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlovchi me'yorlarning ilmiylik darajasini va ob'ektivligini oshirish;

⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йилнингасосий якунлари ва 2013 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув кўлланма. – Т.: “О’qituvchi” НМИУ. - 2013. –Б.123.

- iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlovchi ilmiy me'yorlarni ishlab chiqishda muntazam holda jahonning ilg'or fan-texnika yutuqlari va yangiliklarining e'tiborga olinishini ta'minlash va h.k.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarning izchil ravishda amalga oshirilishi tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikning iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishga ta'sirini yanada kuchaytirish imkonini beradi.

III-bob bo'yicha xulosalar

1. Qishloq xo'jaligida olingan foyda miqdorining pastligi yoki zarar ko'rishi ko'p jihatdan tarmoqdagi mavjud iqtisodiy resurslardan samarali va tejamli foydalanish hamda turli omillar o'rtasidagi mutanosiblik darajasining pastligi bilan bog'liq.

2. Butun iqtisodiyot miqyosida mehnat unumdorligi o'rtacha darajasining o'sishiga erishish uchun quyidagi jihatlar bo'yicha tarmoqlar o'rtasida mutanosibliklarning ta'minlanishi zarur bo'ladi:

- ishchi kuchi bilimi, malakasi va sifatining muayyan kasb, lavozim va ish o'rni bo'yicha talab qilinayotgan ko'rsatkichlarga muvofiqligi;

- mehnat jarayonlarining tegishli zamonaviy texnika va texnologiya vosiatalari bilan ta'minlanganligi;

- mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv darajasining optimalligi va maqsadga muvofiqligi;

- iqtisodiy resurslardan oqilona va tejamli foydalanish darajasi.

3. Mamlakatimizda ichki talabni qo'llab-quvvatlash orqali tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish;

- ularni imtiyozli kreditlar ajratish orqali qo'llab-quvvatlash;

- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga byudjet-soliq imtiyozlarini berish;

- eksport salohiyatini rivojlantirish hamda mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotiga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish.

4. qishloq xo'jaligida ishchi kuchi resurslaridan samarali va tejamli foydalanishni ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchi resurslarini o'zining ixtisosligi, malakasi va sifati bo'yicha mavjud ish o'rinlariga muvofiqligini ta'minlash;

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi darajasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ishchi kuchining optimal me'yorini aniqlash va band ishchi kuchi sonini unga muvofiqlashtirish;

- ortiqcha ishchi kuchi resurslarini qishloqda qayta ishlash sanoati, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma korxonalarini barpo etish orqali band qilish.

5. Umuman olganda, iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni yanada kuchaytirishning muhim yo'llari sifatida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiy resurslarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanish tejamkorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va ularga maqsadga yo'naltirilgan holda yondashish;

- iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlovchi me'yorlarning ilmiylik darajasini va ob'ektivligini oshirish;

- iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlovchi ilmiy me'yorlarni ishlab chiqishda muntazam holda jahonning ilg'or fan-texnika yutuqlari va yangiliklarining e'tiborga olinishini ta'minlash va h.k.

XULOSA

Iqtisodiyotni tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot davomida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'lindi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bir maromda kechishida muvozanatlikni ta'minlashning asosiy sharti bo'lgan turli daraja va ko'rinishdagi mutanosibliklar muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiyotda mutanosiblik ta'minlanmay turib, uni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirib bo'lmaydi.

2. Inqirozga qarshi choralar dasturi amalga oshirilayotgan sharoitda iqtisodiyotda salbiy hodisalar kelib chiqishining oldini olishning muhim yo'li – iqtisodiyotning turli darajasidagi mutanosiblikni ta'minlash hisoblanadi.

3. Turli tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik bir-biridan farqlanishi mumkin. Bunda mazkur turdagi mutanosiblikning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy sharoit, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi; iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish darajasi; mehnat taqsimotida tutgan o'rni; tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish darajasi muhim o'rin tutadi.

4. Iqtisodiy mutanosibliklarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim va umumiy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarining ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi; ilg'or zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish; iqtisodiy resurslardan samarali va tejamli foydalanish darajasining o'sishi; ishchi kuchi malakasining oshishi; mehnat unumdorligining o'sishi va h.k.

5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'z vaqtida sotilishi va qo'shimcha daromad olinishini ta'minlashning muhim yo'nalishi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat korxonalarida qayta ishlashni rivojlantirish hisoblanadi. O'zbekistonda yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi past bo'lib, uni rivojlantirish o'ta dolzarb bo'lib turgan paytda korxonalarning aksariyati ishlab chiqarish quvvatlarining yarmidan ham foydalanayotganlari yo'q.

6. Iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlari bo'lgan sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash borasida muammolar mavjud. Jumladan,

ishlov beriladigan yer maydoni bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur texnika vositalari miqdori o'rtasida, yetishtirilgan mahsulot bilan uni sanoat korxonalarida qayta ishlash imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklar mavjud.

7. Iqtisodiy mutanosiblik ta'minlanishining bozor mexanizmlarining mustaqil faoliyati nazariy jihatdan e'tirof etilsada, real hayotda ularning samarali amal qilishini davlat mexanizmining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Davlat tomonidan iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashda nomuvozanatlik holatlarining sababi, darajasini farqlash zarur. Chunki, bunday farqlash ularni ta'minlashda davlatning tegishli iqtisodiy siyosati va mos dastaklaridan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

8. Mamlakatimizda ichki talabni qo'llab-quvvatlash orqali mutanosiblikni ta'minlash bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Bulardan asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- ularni imtiyozli kreditlar ajratish orqali qo'llab-quvvatlash;
- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga byudjet-soliq imtiyozlari berish;
- eksport salohiyatini rivojlantirish hamda mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotiga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish.

9. Tejamkorlikning ob'ektiv iqtisodiy munosabat sifatidagi tabiiy shakllanish va amal qilish jarayoni uzoq muddat taqozo etilib, bu davrda juda ko'plab tabiiy resurs va moddiy boyliklar xo'jasizlarcha ishlatilishi natijasida behuda sarf bo'lib ketishi mumkinligi sababli, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida dastlabki pallasida tejamli xo'jalik yuritish mexanizmlarining davlat tomonidan shakllantirilishi, tartibga solinishi va rag'batlantirib turilishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tarmoqlarni mutanosib rivojlantirishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqaror sur'atlarini ta'minlashda mutanosiblikning quyidagi amaliy jihatlaridan foydalanishga e'tibor kuchaytirish lozim: iqtisodiy o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bir maromda, barqaror ravishda kechishi uchun asos yaratish; ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlash; iqtisodiy resurslarning davlat, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalari, hududlari va boshqa tarkibiy qismlari bo'yicha oqilona va samarali taqsimlanishiga imkoniyat yaratish; mamlakatdagi mavjud ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida oqilona taqsimlash va h.k.

2. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishida o'zaro dialektik bog'liqlik mavjud bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirmay turib xizmat sohasini kengaytirib bo'lmaydi. O'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi ishlab chiqarish rivojida yangi imkoniyatlar ochib beradi. Shunga ko'ra, hozirda tarixan uzoq yillar davomida rivojlanib kelgan ishlab chiqarish sohasi hamda jadallik bilan o'sib borayotgan xizmat sohasi o'rtasida o'zaro oqilona mutanosiblikning shakllanish jarayoni davom etmoqda. O'zbekiston rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetishi uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi nisbatni hozirgi 1:0,74 darajadan 1:1,5-2,5 darajaga qadar oshirish zarur bo'ladi.

3. Mamlakatimizda ichki talabni qo'llab-quvvatlash orqali tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- ularni imtiyozli kreditlar ajratish orqali qo'llab-quvvatlash;
- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga byudjet-soliq imtiyozlarini berish;
- eksport salohiyatini rivojlantirish hamda mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotiga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish.

4. Umuman olganda, iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni yanada kuchaytirishning muhim yo'llari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy resurslarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanish tejamkorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va ularga maqsadga yo'naltirilgan holda yondashish;

- iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlovchi me'yorlarning ilmiylik darajasini va ob'ektivligini oshirish;

- iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlovchi ilmiy me'yorlarni ishlab chiqishda muntazam holda jahonning ilg'or fan-texnika yutuqlari va yangiliklarining e'tiborga olinishini ta'minlash va h.k.

5. O'zbekistonda mutanosiblikni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni yanada yuksaltirishning quyidagi yo'nalishlaridan foydalanish maqsadga muvofiq: milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalari o'rtasidagi o'zaro oqilona nisbatni ta'minlash, ular o'rtasidagi ishlab chiqarish va texnologik bog'liqlikni optimallashtirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish; iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi muayyan mutanosiblikni ta'minlash; mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari va ulardan foydalanish borasidagi mutanosiblikni ta'minlash; innovatsiyalardan foydalanish, ilmiy-texnikaviy salohiyatni yuksaltirish orqali yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish; mavjud resurslar taqsimotini yaxshilash, ishlab chiqaruvchi kuchlarni samarali joylashtirish va hokazo.

6. Iqtisodiyotning mutanosibli rivojlanishini ta'minlashda quyidagi yo'nalishlarda resurslardan tejamli foydalanish zarur: iqtisodiy resurslarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan samarali foydalanishga majbur etuvchi mexanizmni yanada takomillashtirish; tejamkorlikka ta'sir etuvchi omillar va ularning iqtisodiy muvozanat, mutanosiblikka ta'sirini aniqlash; resurslardan tejamli foydalanish me'yorlarining ilmiylik darajasi, ob'ektivligini oshirishda

jahonning ilg'or fan-texnika yutuqlari va yangiliklarini ishlab chiqarish amaliyotiga tadbiriq etish maqsadga muvofiqdir.

7. Qishloq xo'jaligida ishchi kuchi resurslaridan samarali va tejamli foydalanishni ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchi resurslarini o'zining ixtisosligi, malakasi va sifati bo'yicha mavjud ish o'rinlariga muvofiqqligini ta'minlash;

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi darajasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ishchi kuchining optimal me'yorini aniqlash va band ishchi kuchi sonini unga muvofiqqlashtirish;

- ortiqcha ishchi kuchi resurslarini qishloqda qayta ishlash sanoati, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma korxonalarini barpo etish orqali band qilish va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. Ўзбекистон Республикаси конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т.: “Адолат”, 1996.
3. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ Кодекси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Чет эл инвестициялари тўғрисида”ги қонуни. Ўзбекистон Республикасининг янги қонунлари. – Т.: “Адолат”, 1992.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Кичик ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги қонуни. // Иқтисод ва ҳисобот, №2, 1995.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Чет эл инвестициялари тўғрисида”ги қонуни. (Солиқ тўловчининг журнали 6-сон). 1998 йил 30 апрел.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик ва тадбиркорлар фаолиятининг кафолати тўғрисида”ги қонуни. 1999 йил 14 апрел. Ўзбекистоннинг янги қонунлари. - “Адолат”, 1999.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет тизими тўғрисида”ги қонуни. Ҳалқ сўзи” газетаси. 2000 йил 27 сентябр.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Табиий монополиялар тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрири). Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 1999 йил 19 август. - “Адолат”, 2000.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги қонуни. // Хўжалик ва ҳуқуқ, 2000. 10-сон.
11. Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги қонуни. Янги таҳрири. “Ҳалқ сўзи” газетаси, 2003 йил 10 июн.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, хусусий мулк манфаатларини ҳимоя қилиш ва тадбиркорликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1994 йил 21 январдаги фармони.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хорижий сармоялар иштирокидаги корхоналарга бериладиган қўшимча рағбатлантириш омиллари ва имтиёзлари тўғрисида”ги 1996 йил 30 ноябрдаги фармони.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кичик ва ўрта тадбиркорликни ривожлантиришни рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 1997 йил 31 январдаги фармони.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларни барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги 2008 йил 28 ноябрдаги фармони.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани янада ривожлантириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2009 йил 20 январдаги қарори.

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ноозиқ-овқат истеъмол товарлари ишлаб чиқариш кенгайтирилишини рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2009 йил 28 январдани қарори.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

18. Каримов И.А. Мақсадимиз тинчлик, барқарорлик, ҳамкорлик. Т.: “Ўзбекистон”, 1995. - 45 б.

19. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.: “Ўзбекистон”, 1995. -269 б.

20. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т-2. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. - 381 б.

21. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т-4. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. - 349 б.

22. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т-3. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. - 366 б.

23. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: “Ўзбекистон”, 1996. - 363 б.

24. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. Т-5. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997. - 381 б.

25. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкуриси халқни-халқ қилишга хизмат этсин. - Т.: “Ўзбекистон”, 1998. - 30 б.
26. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998. – 686 б.
27. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т-6. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998. - 429 б.
28. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ асрга интилоқда. Т.: “Ўзбекистон”, 2000. – 252 б.
29. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-том. Т.; “Ўзбекистон”, 2000. - 112 б.
30. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11 –Т.: “Ўзбекистон”, 2003. -320 б.
31. Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. Т.: “Ўзбекистон”, 2005. -144 б.
32. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. –Т.: “Ўзбекистон”, 2006. -280 б.
33. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007. -320 б.
34. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодий-иқтисодий барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. –Т.: “Ўзбекистон”, 2008. -368 б.
35. Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маъруза, 2008 йил 8 февраль. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2008. -645 б.
36. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. –Т.: “Ўзбекистон”, 2009. -280 б.

37. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари / И.А.Каримов. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

38. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. –Т.: Ўзбекистон, 2010. – 80 б.

39. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. –Т.: Ўзбекистон, 2010. 56-б.

40. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади: 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза, 2011 йил 21 янв. –Т.: Ўзбекистон, 2011.-48 б.

41. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Т.: “Ўзбекистон”, 2012.

42. Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. Т.: “Ўзбекистон”, 2013.

43. Каримов И.А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. Т.: “Ўзбекистон”, 2014.

IV. Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plamlari:

44. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Дарслик. –Т.: “Меҳнат”, 2004. -670 б.

45. Басовский Л.Е. “Прогнозирование и планирование в условиях рынка”. - Москва: Инфра, 2002. - 91 с.

46. Борисов Е. Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. – 544с.

47. Вахобов А., Бурхонов У., Жумаев Н. Чет мамлакатлар молияси. -Т.: Янги аср авлоди. 2003. - 334 б.

48. Вахобов А. ва бошқалар. Халқаро молия муносабатлари. -Т.: Шарқ, 2003. -400 б.
49. Вахобов А. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарқ, 2003. -319 б.
50. Кейнс Дж. М. Избранные произведения. -М.: Экономика, 1993.
51. Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. - М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. – 432с.
52. Козырев В.М. “Основы современной экономики” 2-е издание. Учебник для вузов. Москва: “Финансы и статистика”, 2001. - 432 с.
53. Леонтьев В.В. Межотраслевая экономика: Пер. с англ./ Автор предисл. и науч. ред. А.Г.Гранберг. -М.: ОАО Изд-во “Экономика”, 1997. - 479 с.
54. Маконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Пер. с 13-го англ. изд. -М.: Инфра - М, 2001. -974 с.
55. Мальтус. Т. Опыт о законе народонаселения. –М.: Эконов, 1993. - 486с.
56. Мамедов О.Ю. Смешанная экономика. - Ростов н/Д: Изд. Феникс, 2001. -224 с.
57. Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х томах. -М.: Издательская группа “Прогресс”, 1993.
58. Мировая экономика: Учебник / Под ред. проф. А.С.Булатова. – М.: Экономист, 2005, -147с.
59. Мочерный С.В., Некрасов В.Н., “Экономическая теория”. Учебник для вузов. Москва, 2000.
60. Мэнкью Грегори. Принципы Экономикс. -СПб: Питер Ком, 1999. - 784 с.
61. Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник / Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, 504-б.
62. Орешин В.П. Государственное регулирование национальной экономики (В вопросах и ответах): Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2000. - 124 с.

63. Прогнозирование и планирование в условиях рынка. Учебн. пособие для вузов. / Под ред. Т.Г.Морозовой. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. - 318 с.
64. Расулев А. Бедренцев А. Узбекская модель рыночных реформ и макроэкономическая стратегия “Общества и экономика”, 2000. -89 с.
65. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005. -280с.
66. Сажина М., Чибриков Г. Экономическая теория: учебник для вузов. –М.: Норма, 2007. -672 с.
67. Саидова Г., Шадыбаев Т. Макроэкономика. -Т.: Шарқ, 2003. -112 с.
68. Самуэлсон П., Нордхаус В. Экономика.: Учебник / 18-е изд.: Пер с англ. –М.: ООО “Вильямс”, 2009. -1360 с.;
69. Сей Ж. Трактат политической экономии. –М.: Экономика. 1980. – С.217.
70. Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов. – М.: 1976. -332 с.
71. Стенли Фишер и др. Экономика. -М.: Изд. Дело, 1993. -829 с.
72. Тарасевич Л.С., Гальперин В.М., Гребенников П.И., Леусский А.И. Макроэкономика: СПб.: СПбГУЭФ, 1999. - 656 с.
73. Тожибоева Д. Иктисодиёт назарияси. Иккинчи китоб. -Т.: Шарқ, 2003. -416 б.
74. Тухлиев Н., Таксанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. -Т.: “Ўқитувчи”, 2000. -368 с.
75. Устиян И. Кейнсианство: доктрина регулируемой рыночной экономики “Экономист”. - М., 1996.
76. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. - М.: Инфра - М, 2000. -312 с.
77. Фридман М. Если бы деньги заговорили... /Пер. с. англ. –М.: Дело, 1998. -160 с.
78. Хейне Пол. Экономический образ мышления / Перевод с англ. -М.: “Catalaxu”, 1997. -704 с.

79. Шодмонов Ш., Гофуров У. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. -728 б.

80. Экономическая теория. Под редакцией заслуженного деятеля науки РФ д.э.н. А.И. Добрынина, д.э.н. Л.С. Тарасевича. Санкт-Петербург, 1997. -295 с.

81. Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004. – 592 с.

82. Экономическая теория: Учебник. – Изд. испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 672 с.

83. Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2006. – 480 б.

84. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Меҳнат, 1995. -528 б.

85. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Т.: Иқтисодиёт, 2009.

86. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа. – Т.: Иқтисодиёт. - 2011. 82-б.

87. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотини етиштириш учун талаб этиладиган меҳнат ва моддий ресурслар меъёрлари. – Т., 1997.

88. Ғуломов С. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2000. -280 б.

89. Ҳамроев О.Х. Иқтисодий мувозанат ва уни таъминлаш механизмлари. – Т.: ТДИУ, 2004. -192 б.

V. Ilmiy jurnallardagi maqolalar

90. Акрамов Э. Турецкая модель социально-экономического развития. // Экономика и статистика, -Ташкент, 1993, -№4.

91. Абалкян Л. Ожидание перемен и уроки истории. // Вопросы экономики, -Москва, 2000, -№6.

92. Баутина Н. Опыт становления рыночных хозяйств (информация, размышления, комментарий). // Экономические науки, -Москва, 1991, -№1.

93. Волков А. Финансовая статистика и переход к рыночной экономике. // Вопросы экономики, -Москва, 1991, -№4.

94. Журавлёв С. Государственное регулирование экономики в переходной период. -М.: // Экономика, -Москва, 1991, -№5.

95. Кац И. Роль и задачи государственного регулирования экономики. // Экономист, М.: 1996.

96. Петров А. Планомерность и пропорциональность социалистического воспроизводства. // Плановое хозяйство, -Москва, 1983, -№1.

97. Трофимов Г. Внешний долг денежно-кредитная политика. // Вопросы экономики, -Москва, 2000, -№5.

98. Фозилов Р. Молиявий ва пул сиёсати. // Иқтисод ва ҳисобот, -Тошкент, 1996, -№8.

99. Хамроев О.Х. Макроэкономическое равновесие и причины ее нарушения. // Экономика и класс собственников, -Ташкент, 2003, -№4.

100. Шодмонов Э.Ш. Иқтисодий мувозанатликнинг намоён бўлиш шакллари // Иқтисодиёт ва таълим. – Тошкент, 2008. – №4.

101. Шадманов Э.Ш. Структурные преобразования и их финансовые источники в Узбекистане // Перспективы инноваций, экономики и бизнеса. Международный научный Бюллетень. - Прага, 2009. -Выпуск 1.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va xisobotlar

102. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари / Ўзбекистон Республикаси Статистик қўмитаси. 1996-2006 йиллар.

103. «Экономика Узбекистана» информационно-аналитический обзор за 2007 год.

104. Сельское хозяйство Узбекистана 2008 / Статистический сборник. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.

105. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. 2007-2010 йиллар / Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Т., 2008.

106. Ўзбекистон иқтисодиёти / Ахборот-таҳлилий бюллетень 2009 йил. Иқтисодий тадқиқотлар маркази, 2010.

107. Ўзбекистон Иқтисодий ахборотномаси, 2010 / Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Т., 2011.

108. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. Манбаа: «Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами».-Т.: “Ҳаёт нашр” МЧЖ, 2013

VII. Internet saytlari

109. www.gov.uz–O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.

110. www.press-service.uz–O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.

111. www.mfer.uz–O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.

112. www.UzA.Uz–O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.

113. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti.

114. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.

115. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali.